

Начальное Образование

Boshlang'ich TA'LIM

1
YANVAR
2009 YIL

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.*

Alisher Navoiy

**ILMIY-METODIK,
AXLOQIY-TA'LIMIY
OMMABOP JURNAL**

MUASSIS:
*O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi*

Bosh muharrir:
Zuhra SHOKIROVA

TAHRIR HAY'ATI:
Nosirxon Akbarov,
Dilshoda Dadajonova
Jo'ra Yo'ldoshev,
Mamlakat Yo'ldosheva,
Safo Matchonov,
Usmonali Musayev,
Gulnora Nurlepesova,
Dildora Po'latova,
Tursunoy Soliyeva
(mas'ul kotib),
Xadicha Sotvoldiyeva,
Yunusxon Sharipov.

**JURNAL 1992 YIL
YANVARIDAN
CHIQA BOSHLAGAN.**

*Jurnal O'zbekiston Matbuot va
axborot agentligida 2006 yil
qayta ro'yxatga olinib, 0056
raqamli guvoohnoma berilgan*

Manzilimiz: 100083, Toshkent,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Telefon: 236-58-26
Fax: (+998-712) 232-02-90,
233-72-28
E-mail: talim-uz@inbox.ru

MUNDARIJA

«BOSHLANG'ICH TA'LIM» YO'NALISHIDAGI FANLAR OYLIGI Ijod etmoq, yaratmoq uchun dildan ishlamoq darkor <i>Z.Shokirova.</i>	2
VATAN HIMOYACHILARI KUNIGA Batan ostonadan boshlanadi <i>X.Sotvoldiyeva.</i>	4
MA'NAVIYAT Bag'rikenglik — asosiy mezon <i>R.Medetova.</i>	6
TA'LIM MUASSASALARIDA IJODIY MUHITNI RIVOJLANTIRISH Izlanuvchan, zamonaviy, tashabbuskor <i>M.Tuydijanova.</i>	12
MATEMATIKA Bilimdonlar bellashuvi <i>D.Xidirova.</i>	18
2009 YIL — QISHLOQ TARAQQIYOTI VA FAROVONLIGI YILI Dilimizdagi ulug' maqsad <i>O'Mardiyeva.</i>	22
IQTISOD SABOQLARI Bozor munosabatlari <i>Z.Qobiljonova.</i>	24
PSIXOLOGIYA O'quvchi shaxsi — ham ob'yekt, ham sub'yekt <i>Z.Qorayev.</i>	26
ODOBNOMA Yaxshilik — inson ziynati <i>N.Rayfova.</i>	28
НАЦИОНАЛЬНАЯ ПРОГРАММА В ДЕЙСТВИИ «Кто самый умный» <i>Э.Эм, Н.Ефремова, Г.Резник.</i>	30
Земля — дорогая наша планета <i>Е.Кравченко.</i>	32
Ребёнок развивается играя <i>С.Степанова.</i>	34

IJOD ETMOQ, YARATMOQ UCHUN DILDAN ISHLAMOQ DARKOR

«Insonning qalbi va tafakkuriga bevosita ta'sir o'tkazadigan barcha sohalardagi faoliyatimizni xalqning ma'naviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur», degan edi davlatimiz Rahbari o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida.

Murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini baxsh etadigan, o'z o'quvchilariga haqiqatan ham hayot maktabini beradigan mo'tabar zotlar — o'qituvchilar Yurtboshimiz va xalqimiz orzusidagi shaxs tarbiyasiga har qachongidek kamarbasta bo'lmoqdalar.

Ular yosh avlod ongiga puxta bilim singdirish, ularda keng dunyoqarashni, tafakkurni rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish uchun ta'lim-tarbiya ishlarini yuksak saviyada tashkil etayaptilar.

An'anaviy tarzda har yili o'tkaziladigan «Fan oyligi» o'qituvchilikdek sharafli kasb egalarining eng yaxshi faoliyatlari ko'zgu bo'layapti, desak xato qilmaymiz.

O'z yakuniga yetgan avvalgi yilimizning dekabr oyi Xalq ta'limi vazirligining «Umumta'lim muassasalarida fan oyligini o'tkazish to'g'risida»gi buyrug'iga asosan «Boshlang'ich ta'lim» yo'nalishidagi fanlar oyligi» deb e'lon qilindi.

— Ijodkorlik ilg'orlikka, yutuqlarga zamindir, — deydi Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasi Metodika markazi direktori B.Arslonov. — Boisi, mamlakatimizda «Yoshlar yili» Davlat dasturi vazifalari muvaffaqiyat bilan bajarilayotgan, «2008-2012 yillarda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan modernizatsiyalash va ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarish» Davlat dasturi amalda o'z ifodasini topayotgan hamda 2008-2009 o'quv yilini Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish o'quv yili» deb e'lon qilingan bir paytda o'qituvchilar faoliyatiga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ular ushbu fan oyligida:

— o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, qobiliyat va iste'dodlarini ro'yobga chiqarish;

— zamonaviy texnologiya va metodlarni o'quv jarayonida muvaffaqiyatli qo'llashga erishish;

— pedagoglarning ijodiy faolligini oshirish va eng yaxshi ish tajribalarini ommalashtirish;

— sinfdan tashqari tadbirlarning o'quv jarayoni bilan uzviyligini ta'minlash;

— «Boshlang'ich ta'lim» yo'nalishidagi fanlar oyligi bois, ta'lim

samaradorligini oshirish;

— o'quv-metodik ishlarning amaliyotga tadbir etilishini ta'minlash kabi vazifalarni amalga oshirishlari zarur bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlangan vazifalarning bekamu ko'st bajarilishini maqsad qilib olgan fan oyligining yakunlovchi festivali Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 279- maktabda bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasi Metodika markazi direktori B.Arslonov, ushbu Markaz metodisti O.Vahobova, boshlang'ich ta'lim metodisti D.Toshmuhamedova, Respublika Ta'lim markazi metodisti D.Muhammadjonova, Toshkent shahar pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti katta o'qituvchisi Sh.Vosiqova, Rossiya (Россзартубежцентр) madaniyat markazi rais o'rinbosari D.Sa'dullayev, «Ma'rifat» gazetasi, «Boshlang'ich ta'lim» jurnali pedagog-jurnalistlari, 11 ta tuman boshlang'ich ta'lim metodistlari, o'qituvchilari, otanalar va o'quvchilar ishtirok etishdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, boshqarma tasarrufidagi barcha umumta'lim maktablarida oylikka mos tarzda devoriy gazetalar, bukletlar, poytaxtimiz Toshkentning 2200 yilligiga atab albomlar, «Qomusimiz — baxtimiz poydevori!» shiori ostida insholar va boshqa ijodiy ishlar ko'rik-tanlovlari o'tkazildi.

Tarixiy va diqqatga sazovor joylarga sayohatlar uyushtirildi. Bulardan tashqari interfaol usulda o'tkazilgan «Eng

namunali dars», «Eng mukammal dars ishlanmasi», «Eng ijodkor o'qituvchi», «Eng yaxshi elektron darslik» va boshqa nominatsiyalar bo'yicha ko'rik-tanlovlari o'tkazildi.

Maktablarning fan oyligi taqdimotidan so'ng Mirzo Ulug'bek, Uchtepa, Sirg'ali, Shayxontohur tumanlari maktablari ishi eng yaxshi deb topildi. 8 ta nominatsiya bo'yicha 50 nafar o'qituvchi, 15 nafar iqtidorli o'quvchilar TSHXTBBning Faxriy yorliqlari va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Uchtepa tumanidagi 312-maktabda bo'lib o'tgan tadbirlarda tuman miqyosidagi 37 ta ta'lim muassasalari ishtirok etdi. Bu yil festivalga tashrif buyurgan boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining ishlari 10 nominatsiya bo'yicha baholandi. Bu borada Uchtepa tuman XTB boshlang'ich ta'lim uslubchisi Sanobar Musayeva shunday deydi:

— Fan oyligi tumanimiz ilm maskanlarida o'zgacha e'tibor, uyushqoqlik bilan o'tishiga katta ahamiyat qaratildi. Maktablarda o'tkazilgan seminarlar, ochiq darslar, o'qituvchilarimizning matbuotdagi chiqishlari fan oyligi davomida ular faoliyatini yorqin aks ettirdi. Festivalda esa ular o'zlarining dars ishlanmasi, devoriy gazeta, o'qituvchilar yaratgan eng yaxshi ko'rgazmali qurollar, ijodkor o'qituvchilarning ijod mahsullari, ular yaratgan eng yaxshi buklet, qo'l ishlari, husnixati, ommaviy axborot vositalarida yoritilgan maqolalari, sahna ko'rinishlari

bilan ishtirok etdilar.

Ta'lim maskanlaridan 74-, 123-, 193-, 228-, 236-, «Orom» bog'cha-maktab majmui, 217-maktablar jamoalari barcha nominatsiyalar bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga erishdilar. Ayniqsa, 228-maktabning «Bilimlar saltanatiga sayohat», shuningdek, 123-, 193- maktablarining o'ziga xos sahna ko'rinishlari ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Festivalga mezbonlik qilgan 312-maktab jamoasining tadbiriga alohida tayyorgarlik ko'rganlarini e'tirof etar ekanmiz, maktab direktori Vasila Hoshimova, o'qituvchilardan Norida Mamedova, Elmira Xodjiolimovalarga minnatdorlik bildiramiz. Festivalning boshlanishida o'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan ochiq darslar mazkur maktab boshlang'ich sinflar faoliyatini ko'zga kabi aks ettirdi.

Shayxontohur tumanidagi 324-maktabda bo'lib o'tgan fan oyligi yakuniy tadbirida bir qancha nominatsiyalar bo'yicha faol ishtirok etgan o'qituvchilar taqdirlandilar. Bu yerda tashkil etilgan ko'rgazmalar, devoriy gazetalar, turli mavzulardagi chiqishlar yangi yil bayrami tantanalariga ulanib ketdi.

— «Boshlang'ich ta'lim» yo'nalishidagi fanlar oyligi»da o'qituvchilarning ham, o'quvchilarning ham ijodkorligiga katta ahamiyat berdik, — deydi maktab direktori Ra'ho Alimova. — Bilim maskanimizda 1937 nafar o'quvchi bo'lsa, shulardan 978 nafari boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya olishadi. O'quvchilarimizdan Gulomov Jamshid boks bo'yicha Osiyo chempioni, Nodirbekov Olim Malayziyada boks bo'yicha o'tkazilgan xalqaro chempionat g'olibi. Bu yil 4-sinf o'quvchisi Feruza Abdusalilova ekologiya bo'yicha o'tkazilgan rasmlar konkursida «Orolni asrang!» rasmi bilan g'olib bo'ldi va Xalq ta'limi vazirligining diplomini oldi. Boshlang'ich sinflar o'rtasidagi ta'lim-tarbiya, bilim sifati samaradorligi 80 foizni tashkil etdi.

Tadbir so'nggida ilg'or boshlang'ich sinf o'qituvchilari munosib taqdirlandi.

Mamlakatimizning Navoiy shahridagi 8-maktabda bo'lib o'tgan tadbirlar borasida ham quvonarli misollarni keltirish mumkin.

Viloyat Xalq ta'limi Boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Azamat Azimov va

ko'plab o'qituvchilar, ota-onalar ishtirok etgan mazkur festivalda eng yaxshi deb topilgan dars ishlanmalari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar ssenariylari, «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolarining ishlari, qo'lda yasalgan o'yinchoqlar namoyish etildi.

Viloyat Xalq ta'limi bo'limi metodisti Shahlo Rahmonovanning ta'kidlashicha, viloyatda 368 ta maktab bo'lib, shulardan 5 tasi tayanch maktablaridir. Bu yil fan oyligiga bag'ishlab 42 ta seminar o'tkazildi. Unda 1300 nafarga yaqin boshlang'ich sinf o'qituvchisi ishtirok etdi. Yakunlovchi festivalda 12 ta maktab jamoasi qatnashish huquqini oldi.

— Ikki yildan buyon fan oyligining yakunlovchi festivalida ishtirok etaman, — deydi Karmana tumanidagi 4-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Gulbahor Sharopova. — Men ochiq darslarimni «Labirint», «Zinama-zina» kabi interfaol usullarda namoyish etdim.

Qaysi bir ta'lim muassasasida ijodiy muhit yaxshi bo'lsa, o'sha yerda yutuqlar salmoqli bo'ladi. O'qituvchilarning ko'plab tajribalari ommalashadi. Ana shunday bilim maskanlaridan biri — Zarafshon shahridagi 1-maktabdir.

Bu yerda novator o'qituvchi S.Stepanova faoliyat yuritadi. Tajribali pedagog festivalda o'zi yaratgan ko'rgazmali qurollari bilan qatnashdi, tajribalari bilan hamkasblarini tanishtirdi.

Tomdi tumanidagi 1- qozoq maktabi o'qituvchisi Gulnora Boymenova o'zining «Yulduz» usulidagi darsi, Xatirchi tumanidagi 83-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Mo'tabar Safarova «Ona tili darslarida she'riyatdan foydalanish», Zarafshon shahridagi 2-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi Z.Sharipova ona tili, matematika, tabiatshunoslik, o'qish darslarini o'tishda «Bilimlar maydoni», «Archa» usullaridan foydalanishni ko'rsatib berdi.

«Eng yaxshi bolalar ansambli» nomini olgan, Konimex tumanidagi 5-maktabning «Anshi bolajon» ansambli ishtirokchilarining o'zbek-qozoq xalqlari do'stligini ifodalovchi chiqishlari, «Eng yaxshi kichkintoy teatri» nomiga sazovor bo'lgan Navbahor tumanidagi 33-maktab o'quvchilarining milliy urf-

odatlarimizni tarannum etuvchi, «Eng yaxshi ertak» tanlovi g'oliblari, Navoiy shahridagi 13-maktab o'quvchilarining chiqishlari barchada yaxshi taassurot qoldirdi.

Festivalda «Soz sehri» ko'rik-tanlovi qatnashchilariga ham alohida e'tibor qaratildi. Unda musiqa sirlarini o'rganyotgan iste'dodli o'quvchilar o'z bilimlarini sinashishdi. Qatnashchilar milliy musiqamiz asarlaridan namunalarni fortepiano, rubob, dutor va g'ijjakda ijro etib berishdi. Bellashuv haqiqiy musiqa bayramiga aylandi.

Konimex tumanidagi 1-qozoq maktabi o'qituvchisi G.Eleushinova «Tashabbuskor o'qituvchi», Karmana tumanidagi 4-maktab o'qituvchisi G.Jamolova «Eng zukko o'qituvchi», Navbahor tumanidagi 23-maktab o'qituvchisi G.Yelova «Eng ijodkor o'qituvchi» nominatsiyalariga ega bo'ldilar. Zarafshon shahridagi 2-, 13-, Navoiy shahridagi 8-, Konimex tumanidagi 2-, Karmana tumanidagi 4- va boshqa maktablarining ishtirokchilari ham «Eng tashabbuskor o'qituvchi», «Eng faol o'qituvchi», «Eng bolajon o'qituvchi», «Eng bilimdon o'qituvchi», «Eng izlanuvchan o'qituvchi» nominatsiyalarini oldilar.

Festival yakuni o'quvchilar ishtirokidagi «Bola huquqlari — mening tasavvurimda», «Tabiatni asraylik», «Mening birinchi ustozim», «Kimning xati chiroyli?» ko'rik-tanlovlari, o'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan «Eng yaxshi kompyuter bilimdoni», «Eng yaxshi testlar banki», «Eng yaxshi to'garak rahbari» va boshqa musobaqalar g'oliblari aniqlandi va ularga viloyat Xalq ta'limi boshqarmasining Faxriy yorliqlari, esdalik sovg'alari topshirildi.

So'nggi so'z. *Maktab atalmish ulug' dargohni, unda ijodkorlik bilan faoliyat yuritib, fidoyilik namunalarini ko'rsatayotgan o'qituvchilarimizni, ustoz va murabbiylarimizni bugun har qachongidan-da ardoqlayotgan, ularning xalqimiz kelajagini hal qiluvchi mehnatlarini, «hech narsa bilan o'lchab bo'lmas», deya ulug'layotgan ekanmiz, bu aziz insonlarning inson va jamiyat taraqqiyotidagi hissasi tobora ortaveradi, deb umid qilamiz.*

Zuhra SHOKIROVA.



VATAN OSTONADAN BOSHLANADI

Biz yosh avlod tarbiyachisimiz. Farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, uni asrab-avaylash ruhida tarbiyalash bizning asosiy vazifamiz. Shuning uchun ham biz har bir darsimizda, o'tkazayotgan har bir tadbirlarimizda o'quvchilarimizga vatanparvarlik, ona Vatanga hurmat, e'tiqod, sadoqat xislatlarini singdirishimiz kerak.

Men doimo o'quvchilarni mustaqil diyorumizni sevish, uning aziz tuprog'ini e'zozlash ruhida tarbiyalashni oldimga maqsad qilib qo'yaman. Darslarimda ana shu jihatga e'tiborni kuchaytiraman.

Men hozir e'tiboringizga «Quyoshli O'zbekiston» mavzusini o'rganishda o'quvchilarga qay darajada vatanparvarlik tarbiyasini singdirganimni havola qilmoqchiman.

Mavzuni boshlashdan oldin doskaga «Quyoshli O'zbekiston» deb yozib, qo'ydim. Sinfga O'zbekiston bayrog'ini, Bayroq, Gerb ramzi tushirilgan suratlarni olib kirdim. «O'zbekiston – Vatanim mening» mavzusidagi albomdan, «O'zbekiston xalq maqollari» kitobidan, badiiy adabiyotlardan, magnitofondan foydalandim. O'quvchilarim bilan salomlashgach, darsni O'zbekiston madhiyasini kuylash bilan boshladim. O'quvchilar jam bo'lib, madhiyani ijro etishdi:

**Serquyosh hur o'lkam elga
baxt najot,
Sen o'zing do'stlarga
yo'ldosh mehribon.
Yashnagay to abad ilmu fan,
ijod,
Shuhrating porlasin toki bor
jahon.**

Madhiya ijro etilgach, men har bir misra she'ni sodda tarzda izohladim.

**1) Serquyosh hur o'lkam elga
baxt, najot,**

– diyorumizning serquyosh ekanligini hamda bog'i-rog'larga to'la ekanligini tushuntirdim.

**2) Sen o'zing do'stlarga
yo'ldosh, mehribon.**

– bizning diyorumizni do'stlik diyori deyishadi, chunki yurtimizga jahonning har burchidan mehmonlar tashrif byuradilar, tarixiy obidalarga boy Samarqand, Buxoro, Xiva kabi ko'plab shaharlarimizga qiziqib keluvchi sayyohlarning sanog'i yo'q,

ularga O'zbekistonning bag'ri ochiq, ularni do'stiday ko'radi, deb uqtirdim.

**3) Yashnagay to abad ilmu-
fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor
jahon.**

– buyuk bobolarimiz Navoiy, Beruniy, Xorazmiy, Umar Hayyom, Abu Ali ibn Sino kabi jahon ilm-fani rivojiga asos solgan bobokalonlarimizning nomlari hozirgi kunda ham dunyoning turli burchaklarida baralla yangrayotganligini o'quvchilarga tushuntirib o'tdim.

Keyin bolalar bilan quyidagicha savol-javob o'tkazdim:

– Bolalar! Siz uchun eng aziz joy qayer?

Bolalar javob berdilar: – Eng aziz joy — O'zbekiston.

– Siz uchun aziz narsa-chi?

Bolalar javob berdilar: – Shu ona tuproq.

– Jonimiz kimga fido?

Bolalar javob berdilar: – Ona Vatanga.

Bir o'quvchi qizimiz Vatana haqidagi she'ni juda ta'sirli qilib o'qib berdi.

Vatan bor boyliging, ko'zing bilan o'p,

Vatan ko'zlaringda nur bo'lib tursin.

Xalqim, zaxmat komisan – topganlaring ko'p,

Topganlaring bayram, to'ygabuyursin.

Bayrog'ingda-yu, yulduz tasviri,

Oy yulduzlar avval ko'nglingga kirsin.

Tirik qalbda Vatan yashaydi tirik, Topganlaring bayram, to'ygabuyursin.

«O'zbekiston» degan shon-shavkat bilan,

Yurtboshi ellarda, tillarda yursin. Sobit har fuqaro yurtga najot,

shon, Topganlaring bayram, to'ygabuyursin.

Keyin men ulardan ona yurt, ona-diyor haqidagi maqollar, she'rlar, ibratomuz so'zlar haqida fikrlarini so'radim. Ular mavzuga oid talay maqollar, she'rlar yod aytdilar:

**Ona yurtning omon bo'lsa,
rangi-ro'ying somon bo'lmas.**

**Ona yurtning – oltin beshiging.
Yurt tinch – sen tinch.**

**Begona tuproq – devona
tuproq.**

**O'zga yurtning shohi bo'lma,
o'z yurtningning gadosi bo'l.**

**Bulbul chamanni sevar, odam
– Vatanni.**

Ey, muqaddas gul diyorum,
Gulshanim, jonim mening.

Men sening bag'ringda o'sdim,
Yo'qdur armonim mening.

Sen bilan o'tmoqda shodon
Har kun, har onim mening,

Jon fido bo'lsin senga,
Ey, O'zbekistonim mening.

Shuhrati olamni tutgan,
Shavkatu shonim mening.

**Qarab to'ymayman, teran
o'layman,
Doim avaylab qadam
qo'ygayman.
Bu ona tuproq, bu ona
tuproq.
Qo'limga oldim, yetolmas
oltin
Barcha narsadan a'loyu –
oldin,
Bu ona tuproq, bu ona
tuproq.**

*So'ngra mavzuni e'lon qilib,
magnitofondan Po'lat Mo'minning
«Quyoshli O'zbekiston» she'rini
eshittirdim:*

Saodat bergan chiroy,
Bir ko'rgan ming maqtar joy.
Paxtayu mevaga boy,
Kunlari bayramga boy.
Quyoshli O'zbekiston,
Qalbi yosh O'zbekiston.
Kelajakka kuch yiqqan,
Xirmoni ko'kka chiqqan.
Keksalaru yoshlari
Paxta ekib chiniqqan.
Quyoshli O'zbekiston,
Qalbi yosh O'zbekiston.
Do'sti kelsa choy bergan,
Uy to'ridan joy bergan.
San'atkoru olimi,
Hayotga chiroy bergan.
Quyoshli O'zbekiston,
Qalbi yosh O'zbekiston.
Shodlik to'la qo'shig'i,
Obod bog'u, ko'rigi.
Qani yoz, deb turibdi,
Keng chamanda yutug'i.
Quyoshli O'zbekiston,
Qalbi yosh O'zbekiston.
Farzand bo'lib maqtayman,
Xursand bo'lib maqtayman.
Shu o'lkam suvin ichdim,
Dilband bo'lib maqtayman.
Quyoshli O'zbekiston,
Qalbi yosh O'zbekiston.

*She'rni eshittirgach, o'quvchilarga
quyidagi savollarni berdim:*

1. O'zbekiston – ona diyorimiz
haqida nimalarni bilasiz?
2. «Tabarruk makon» deganda
nimani tushunasiz?
3. O'zbekiston tabiati haqida
gapirib bering-chi?
4. O'zbekiston Bayrog'i, Gerbi,

Madhiyasi haqida so'zlab bering?

— Bilasizmi, bolajonlar! Siz
dunyoga kela turib, ota-onangiz sizni
beshikka soladilar. Beshikchaning
dastalariga ko'zmunchoqlar osadilar.
Yostig'ingiz ostiga esa non,
qayroqtosh qo'yadilar. Isiriq
tutatadilar. Tilla beshikchangiz –
birinchi Vatanningiz bo'ladi. Sizga
beshik bo'lgan tollar shu Vatanning
bir bo'lagidir. Birinchi tilingiz
chiqqanida, kulganingizda, ilk bor
«Ona» deganingizda mana shu
tuproq onaday sevinadi. Dunyo ham
siz bilan yashayveradi. Dunyo ham
siz bilan ulg'ayaveradi. Beshingizga
sig'may qolasiz. Bo'yaringiz o'sib
chinorday yigitlar, sarv daraxtiday
go'zal qizlar bo'lib yetishasizlar.
O'shanda allalab, erkalab-yupatib
o'stirgan ilk Vatanningiz beshikning
ona yurtga aylanganini sezib qolasiz.
Har bir qadamingizda «Ona yurti –
oltin beshiging» degan so'z mazmuni
yotadi. Ana o'shanda siz ona yurtga
tayanch bo'lasiz. Ona yurti gullab-
yashnaydi. O'z taqdiringizga
o'zingiz ega bo'lasiz.

Aziz bolajonlar, payg'am-
barimizning hadislarida ham
«Vatanni sevmoq iymondandir»
deyilgan.

*Bir o'quvchi milliy qahramonimiz
Shiroqning jasorati haqida so'zlab
berdi:*

—Shiroq o'z hayotini xavf ostiga
qo'yib, Vatanga bostirib kelayotgan
eron askarlarini jazirama cho'l-
biyobonlarga boshlab boradi.
Dushmanlar cho'lning qizib yotgan
yo'llarida qattiq azob chekadilar.
Cho'l bo'ronlari yuzlab eronliklarni
halok qiladi. Shiroq dushman
askarlarini sahro ichkarisiga boshlab
boraveradi.

Dushmanlar: — «Shiroq, sen
aqldan ozibsan, qayoqqa boshlab
kelding?» – deb baqiradilar. Shiroq
mag'rurlik bilan turib: — «Yo'q, boylik
orttirish maqsadida qurol ko'tarib,
begona yurtga kelayotgan va tinch
xalqlarni talayotgan kishilar aqldan
ozgan», deydi. Dushmanlar Shiroqqa
qimmatbaho buyumlar berishlarini
va'da qilishadi. Uning oyog'i ostiga
uzuk, tilla tangalarni sohib, bizni
qutqargin, deyдилar, lekin Shiroq bu

boyliklar uchun iymonini sotmaydi.

Vatan uchun jonini fido qiladi.

Ota-bobolarimiz Vatandan
uzoqqa ketayotganlarida Vatan
tuprog'idan bir siqim ro'molchaga
tugib olib ketganlar. Bu tuproqni
doim yonlarida olib yurganlar va
Vatan ishq bilan yashaganlar.

— Aziz bolalarim!

Bundan 60-70 yil burun davr
taqozosi bilan o'z yurtini tashlab,
o'zga yurtdan panoh topgan
yurtdoshlarimiz mustaqillik sharofati
bilan o'z ona Vatani kelmoqdalar.
Ular tayyoragohlardan ona
tuproqqa birinchi qadamlarini
qo'yib, tiz cho'kib, Vatan tuprog'ini
o'padilar.

Men o'zga yurtdagi
yurtdoshlarimizning gazeta va
oynomalarda yoritilgan Vatan
haqidagi fikrlarini bolalarga o'qib
eshittirdim. «Begona tuproq –
devona tuproq» – maqolining
mazmunini tushuntirdim. Darsni
bolalar jo'rlligida «Vatanim»
qo'shig'ini kuylash bilan yakunladim.

Oy Vatanim, boy Vatanim,

Noming dilga jo Vatanim.

Noming tildan hech qo'ymayman,
Vatan, sensiz yasholmayman.

Bog'laring eh, asalga boy,

Bog'laring oh, chiroyga boy.

Oy Vatanim, boy Vatanim,

Noming dilga jo Vatanim.

*O'quvchilardan dars so'ngida
savollar tushdi.*

— Ustoz, biz qachon vatanparvar
bo'lamiz?

Shunda men T.Qurbonovning
«Odobnoma» kitobidagi «Ona Vatan
tuyg'usi» bo'limidan quyidagi
satrlarini o'qib eshittirdim: — Xalq
o'qituvchisi, boshlang'ich ta'lim ustasi
Mamajon Abdurasulov bolalarga
shunday deydi:

«Vatanni astoydil himoya qilgan
kishi – qahramon. Mehnatda
sidqidildan o'zini ko'rsatgan va
yangilik yaratgan kishi – mehnat
qahramoni, o'quvchilardanc-hi? A'lo
o'qib, odobli bo'lib, maktabni imtiyozli
shahodatnoma bilan tugatgan
o'quvchi – qahramondir. U ajoyib
vatanparvar hisoblanadi».

**Xadicha SOTVOLDIYEVA,
Farg'ona viloyati, XTPXQTMOI.**

BAG'RIKENGLIK — ASOSIY MEZON

Dunyodagi har bir millat hayotbaxsh an'analarini saqlab qolishga, o'zligini, ishonch va e'tiqodini mustahkamlashga intiladi. Milliy madaniyat esa yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga quvvat berib, uning imkoniyat eshiklarini ochadi.

Yurtimizda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga davlat siyosatining muhim yo'nalishi, ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, tarixiy-madaniy an'analarga eltuvchi omil sifatida katta e'tibor berib kelinadi.

Yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan ta'lim tizimidagi tarbiyani yanada taraqqiy ettirishning asosiy yo'llari: jamiyatdagi tarbiyaning ijtimoiy mavqeini oshirish, umumta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni boshqarishni takomillashtirish, yagona ta'limiy makonni yaratish, jamiyat madaniyati va ilm-fanning yangi yutuqlarini ta'lim dargohlarida qo'llash hisoblanadi. Ta'limdagi global dunyoqarashlar qatoriga o'quvchilarni hamjihatlikda yashash va ishlashga, mas'uliyatni his qilish hamda mojaroli vaziyatlarni tinch yo'l bilan yechishga o'rgatish, bilim egallashga ko'niktirib borish, shuningdek, ularni ta'limdagi yangiliklardan muntazam xabardor etib borishga, faollikka va o'ziga-o'zi baho bera olishga, jamiyatdagi o'zgarishlarda faol qatnashishga undash masalalarini ham kiritish mumkin.

Maktabdagi ta'lim-tarbiya davomida o'quvchining shaxs sifatida kamol topib borishi uchun uni aqlan va ruhan taraqqiy ettirishga, shart-sharoitga moslashishga, o'ziga ishonch, atrofdagilarga ijobiy munosabatda bo'lishiga, mustaqillikka, faollikka o'rgatish, komillikka intilish tuyg'usini yuksaltirish, ajdodlarning tarixiy an'analarini saqlovchi, milliy madaniyatni rivojlantiruvchi, xalqimizning tarixiy-madaniy merosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'luvchi, ma'naviy-axloqiy jihatdan takomillashib boruvchi, huquqiy-demokratik davlatning shaxs erkinligi va huquqini hurmat qiluvchi, millatlararo totuvlikni ta'minlash, tinchliksevarlikni,

zamonaviy tafakkurni yuksaltirish, jamiyatga, o'ziga va o'zgalarga nisbatan sog'lom nigoh bilan qarovchi insonni voyaga yetkazish zarur. Tarbiya jarayonida insonning yetukligiga, o'z shaxsini rivojlantirish imkoniga egaligiga, ularning turli-tuman fe'l-atvorlari jamiyatni rang-barang qilishiga ishonchni uyg'ota olish zarur. Tarbiya bilimning yaratuvchilik kuchi ekanini, jamiyatdagi insonparvar munosabatlarni shakllantiruvchi omil ekanini isbotlash lozim. Shaxs tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari bir qator qonun hujjatlari — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi bilan belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 7 yanvardagi «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat ekanini ta'kidlanadi: bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; bolaning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish; bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik; bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish; bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchliksevarlik tuyg'ularini tarbiyalash; bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish. Bu borada muhtaram Prezidentimiz o'z ma'ruzalarining birida shunday deganlar:

«Bugun biz xalqaro demokratik hamjamiyat safidan munosib o'rin egallash, hech kimdan kam bo'lmaydigan fuqarolik jamiyati barpo etishni o'z oldimizga yuksak maqsad qilib qo'yan ekanmiz, aholimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashini yanada kengaytirish, bu yo'lda to'siq bo'lib turgan, eskidan qolgan qoldiq va asoratlardan butunlay voz kechish, zamon talablari bilan uyg'un va hamohang bo'lib yashash muhim

ahamiyat kasb etishini yaxshi anglab olishimiz lozim».

Yoshlarni hayotga tayyorlash masalasi BMT va YUNESKOning qator hujjatlarida ham tilga olinadi. XXI asr ta'limi bo'yicha Xalqaro komissiyaning hisobotida maktabning eng muhim vazifalaridan biri — insonlarni birgalikda yashashga o'rgatish, davlat va elatlarning ongli ravishdagi aloqadorligini yanada yuksaltirishga ko'maklashish ekani ta'kidlangan. Buning uchun ta'lim insonning o'z o'tmishini anglash orqali dunyodagi o'rmini anglashi, shuningdek, boshqa xalqlarga hurmat bajo keltirishini ta'minlashi kerak. Bunday shaxsning o'ziga xos tomoni — milliy o'zlikni anglay olishi, ma'lum xalqqa tegishli ekanini his etib, uning qadriyatlarini o'zirikidek qabul qilishi, milliylikka xos hayot tarzini tanlashidir.

Begona madaniyatni tushunish, umuminsoniy qadriyatlarga yondashmoq uchun tarbiyachining o'zi avvalambor, o'z madaniyatini chuqur bilishi shart. Ta'limni zamonaviylashtirish, yosh avlodni yuksak axloqiylik, bag'rikenglik, madaniyatlararo hamkorlikka tayyorlash vazifasini hal etish zarur. Demak, jamiyatga, uning rivojiga chin ma'nodagi tolerant shaxslar kerak. Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch" asarida shunday yozadi: «Bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashashi, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin». Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy va ma'naviy bag'rikenglikni shakllantirish bo'yicha qator chora-tadbirlarni ishlab chiqish zaruriy vazifalardan hisoblanadi.

R.MEDETOVA,
O'zPFITI doktranti.

ERKIN TANLOV HOLATI

Ta'lim-tarbiya jarayonini erkinlashtirish shunday holatlarga bog'liqlik, bunda o'quvchilar o'quv faoliyatining maqsadlarini qo'yish imkoniyatiga ega bo'lishi, shu maqsadlarga erishish vositalarini mustaqil tanlay olishlariga bog'liq bo'lgan holatlar erkin tanlov holati deyiladi. Bunda o'quvchilarning o'quv jarayonining maqsad va vositalarini tanlay olishi ko'proq ularning o'quv jarayonida ega bo'lgan boy tajribasiga bog'liq.

Erkin tanlov holati o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, o'quv dasturlarining alohida savollarini idrok etishi, shular asosida o'quv vazifalarining yaqin va uzoq istiqbollari belgilay olishlari, o'quv materiallarini ochib berishining bir nechta yo'llarini ko'rib chiqish va ularni asoslashida muhim ahamiyatga ega. Bunday fikrlash jarayonida o'quvchilar maqsadni aniq qo'yish ko'nikma va malakalarini hosil qiladilar.

O'quv materiallarini birgalikda rejalashtirishni nafaqat yarim yillikka, balki bir darsga ham tuzish mumkindir. Bunday ishni hatto boshlang'ich ta'limning quyi sinf o'quvchilari ham bajara oladilar. Shu maqsadda o'quv materiallarini mustahkamlash darslariga mo'ljallash maqsadga muvofiqdir, chunki o'qituvchi keng imkoniyatlarga ega bo'lib, ko'proq material bilan ishlaydi.

Bunda bitta darsni o'quvchilar bilan hamkorlikda rejalashtirish mumkin. Masalan, tanaffusda xattaxtaga darsning asosiy etaplari — bosqichlari yoziladi:

- uy vazifasini tekshirish;
- og'zaki hisob;
- geometrik vazifa;

- qiziqarli, jumboqli masala;
- mustaqil ish;
- xulosa chiqarish.

Shu bosqichlarga asosan, o'quvchilarga dars rejasini mustaqil tuzish taklif etiladi. Tuzilgan rejaning muhokamasida ko'pchilik qiziqarli va jumboqli masalalar, og'zaki hisob bilan chegaralanganlari aniqlanadi. Demak, 40-7 ko'rinishidagi misollarni yechishni mustahkamlash darslarida 100 ichida qo'shish va ayirishning ko'nikma va malakalarini mustahkamlash uchun qulaydir.

Qanday qilib erkin tanlov holatini unchalik qiziq bo'lmagan, lekin bajarilishi zarur va foydali bo'lgan ish bilan bog'lash mumkin? degan savol hammani qiziqтира kerak. Quyidagi usulni qo'llab, bu muammoning yechimini topsa bo'ladi.

O'qituvchi avvalgi darslarning natijalariga asosan, o'quvchilarda ayirishga doir misollarni yechishda qiyinchiliklar tug'ilganini eslatib o'tadi va o'rtaga «balki shunday misollarni yechishni mashq qilamiz» kabi taklifni tashlaydi. Bu taklifni o'quvchilar qo'llaydilar va dars rejasiga mustaqil ish bosqichi kiritiladi, 48-30 va 30-6 ko'rinishdagi misollar namunasida bilim, ko'nikmalar mustahkamlandi.

Shunday qilib, o'quvchilar faoliyatida muhim bir ko'rsatkich — o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasi vujudga kelmoqda. Bu ko'rsatkich o'quvchilarning ongida «zaruriyatning» muhimligini ob'yektiv erkin tanlov bilan moslashtirish ko'nikmalarini keltirib chiqaradi.

O'quvchilarning o'quv jarayonini erkin tanlov holati bilan rejalashtirishda qatnashishi o'rganilayotgan yondashuvini ham o'zgartiradi, ya'ni ular o'quv jarayoniga mas'uliyatliroq bo'ladilar.

Erkin tanlov holatini nafaqat darslarni rejalashtirishda, balki mustaqil ishlar o'tkazishda ham qo'llasa bo'ladi. Odatda mustaqil ishlar o'rtacha o'qiydigan o'quvchiga mo'ljallangan bo'ladi, lekin bular kuchli o'quvchiga oson, bo'sh o'quvchilar uchun esa qiyinchilik tug'diradi. Ikkinchidan, bolalar ruhiyati bilan bog'liq psixologik muammolar ham, ya'ni — bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda yaxshi o'zlashtiradiganlar qarshisidagi kamsitilgan kabi holatning paydo bo'lishi ham o'quvchidan mas'uliyat va e'tiborli bo'lishni talab etadi. Lekin ayrim holatlarda bu ham bolaning ko'nglini to'ldirmasligi mumkin. Kuchli o'quvchilarda esa, aksincha, boshqalarga nisbatan o'zlarini yuqori bilish hislarini shakllanishiga olib kelishi ham ehtimoldan holi emas. Bunday o'quvchilar sinfdoshlariga yuqoridan, mensimayroq qaraydilar.

Xulosa qilib aytganda, erkin tanlov holati yuqoridagi kabi salbiy oqibatlarining oldini olish uchun yaxshi samara beradi. Ya'ni, u o'quv jarayonini to'ldirib, darsning har xil bosqichlarida qo'llanishi mumkin.

Gulmira TOJIBOYEVA,
Nizomiy nomidagi
TDPU magistri.

DO'STONA MUNOSABAT — YUTUQLAR ZAMINI



Maktab... Ulug' bobokalonimiz Mahmudxo'ja Behbudiy aytganlaridek, maktab dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlicidir. U — bolalikning eng buyuk, eng go'zal orzulariga makon bo'lgan dargoh. Bunda iymon-e'tiqod, bag'rikenglik, Vatanga sadoqat kabi insoniy fazilatlar niholi kurtak yozib, ko'kka bo'y cho'zadi. Bunda hamisha «Bolaga do'stona munosabat muhitini yaratish» shoriga amal qilinadi.

— Maktabimizda «Bolaga do'stona muhitini yaratish» haqidagi konsepsiyaga katta ahamiyat bermoqdamiz, — deydi Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 20-maktab direktori Shahnoza Qosimova. — Boisi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika Ta'lim markazi, YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi tavsiya etgan ushbu hujjat yo'nalishlari «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, hamda DTS talablariga mos keladi. Pedagogik jamoamizda 43 nafar o'qituvchi bor. Ular 565 nafar o'quvchiga ta'lim-tarbiya beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari soni 8 nafarni, o'quvchilar soni 234 nafarni tashkil etadi. Ular o'quv dasturlari talablari asosida ishlaganliklari bois o'quv-

tarbiya ishlaridagi samaradorlik 85 foizni tashkil etmoqda. «Yosh tabiatshunoslar», «Qiziqarli matematika», «Yosh rassomlar», «Ifodali o'qish» kabi fan, «Mohir qo'llar», «Kashtachilik» singari kasb-hunar to'garaklari ishlab turibdi.

O'qituvchilarimiz sinfda do'stona muhitni yaratish va o'quvchilarning o'qishga qiziqishlarini rivojlantiruvchi kuch — rag'batlantirish metodlari — uslublarini qo'llashga harakat qilayaptilar.

Darhaqiqat, maktabda ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligi yildan-yilga oshib borayapti. O'quvchilar darsdan tashqari tadbirlar — fan olimpiadalari, shahar, viloyat, Respublika miqyosidagi musobaqalarda faol ishtirok etib kelayaptilar. Bunga ko'plab misollarni keltirish mumkin.

Ushbu o'quv yilida a'llochi o'quvchilardan Xojiyeva Feruza «Konstitutsiya — baxtimiz poydevori» deb nomlangan insholar tanlovida, Mahmudova Kamola «Mahallam tarixini o'rganaman» ko'rik-tanlovida Respublika bosqichi g'oliblari bo'lishdi. 4-«A» hamda 4-«B» sinf o'quvchilari jamoasi «Umid nihollari» sport musobaqalarining tuman bosqichida birinchi o'rinni egallashdi.

Bulardan tashqari maktab o'quvchilari

«Yashil chiroq», «Sen qonunni bilasanmi?», «Qishloqdagi tengdoshimga tilaklarim», «Zulfiyaxonim qizlari», «Orol muammosi — yoshlar muhokamasida» mavzularidagi bellashuvlarda tuman maktablari orasida g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

O'quvchilardan To'laganova Zamira matematika fanidan o'tkazilgan olimpiadada tumanda birinchi, Ismatov Murod esa uchinchi o'rinni olishdi.

Ma'lumki, o'qituvchilarning o'zaro tajriba almashishida, ilg'or texnologiyalarni ta'lim mazmuniga olib kirishda, olimpiadalar o'tkazishda, fan to'garaklari faoliyatida maktab uslubiy birlashmasi ishi katta ahamiyatga ega.

Ta'lim-tarbiya maskanidagi uslubiy birlashmaga 8 nafar o'qituvchi a'zo. Bu o'qituvchilarning ijrokorligi, izlanuvchanligi, tashabbuskorligi tufayli maktabda «Azizim — ustozim», «Eng yaxshi boshlang'ich sinf xonasi», «Yoshlar yili — mening taqdirimda», «Qomusimiz — baxtimiz» mavzusida ko'rik-tanlovlar o'tkazildi. Bulardan tashqari «O'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, savodxonligini oshirish, husnixatiga e'tibor qaratish» mavzusidagi shahar miqyosida o'tkazilgan seminar, tayyorlangan devoriy gazetalar, bukletlar barchada qiziqish uyg'otdi. S.Abdurazzoqova, D.Zoitova, D.Maqsudova singari yosh, izlanuvchan, ijodkor o'qituvchilarning interfaol usuldagi noan'anaviy ochiq darslari respublikada ommalashtirishga tavsiya etildi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning 3 bosqich talablarida: «O'quvchi yoshlari, Vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash» vazifasi ta'kidlab o'tilgan.

Respublikamizda faoliyat olib borayotgan barcha maktablarning ilg'or, tashabbuskor, fidoyi o'qituvchilari ushbu xayrli ishlarda sira charchamaydilar.

K.GIRFANOVA.

EZGULIKNI BAXT DEB ATADI

Metodist mehnati. Uning tashabbuskorligi, izlanuvchanligi, o'qituvchilar faoliyatini yuqori pog'onalariga ko'tarishda bebaho manba ekanligi borasida ko'p gapiriladi. Uning ilg'or pedtexnologiyalarni ta'lim mazmuniga olib kirish, fanlar bo'yicha olimpiadalar o'tkazish, to'garaklar ishi, turli ko'rik-tanlovlar, ijodiy uchrashuvlar, yosh mutaxassislar bilan ishlashdagi mahorati ham tahsinga loyiq. Qolaversa, «Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat Umummilliy dasturi»da ham metodist «o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini keng yoyilishiga hissa qo'shuvchi vazifa egasi» sifatida e'zozlangan.

*Quyidagi lavhamiz Toshkent shahar Xalq ta'limi Bosh boshqarmasi Metodika markazi boshlang'ich ta'lim metodisti **Dilfuza TOSHMUHAMEDOVA** haqida.*

Murg'ak qalblarga yaxshilik, mehr-oqibat, iymon-e'tiqod urug'larini qadashga intilish inson uchun oliy baxt.

Yosh Dilfuza ana shunday ezgu niyat, buyuk maqsad bilan o'qituvchilik kasbini tanladi. Bu orzuning asosiy va dastlabki kurtagi uning oila muhitidagi tarbiyasi, ota-ona ibrati bo'lsa, ikkinchisi maktabdagi ustozlari namunasi edi.

Uning otasi — o'simlikshunos olim, Zokir Abdurahmonov, onasi Mahmuda Abdurahmonova — o'qituvchi.

Qolaversa, u tug'ilib o'sgan mahalladagi ahillik, inoqlik, milliy urf-odatlarimiz va an'alarimizning e'zozlanishi, insonlarning har bir ishga ezgu niyatlar bilan kirishishlari qizaloqning muallimlik kasbini tanlashiga turtki bo'ldi. Qisqasi, u tarbiya topgan muhit — keyinchalik hayotda ezgulikni baxt deb ataydigan inson bo'lib ulg'ayishiga zamin yaratdi.

1966 yili Toshkentda, ziyolilar oilasida tavallud topgan Dilfuza o'rta maktabni a'lo baholarga tamomlagach, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universitetiga boshlang'ich ta'lim mutaxassisligi bo'yicha hujjat topshirdi.

Oliy dargohni muvaffaqiyatli bitirib, ish faoliyatini Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 21-maktabda boshladi.

Uning dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi, kichikintoylarni fan olimpiadalariga tayyorlashdagi mahorati, mukammal dars ishlanmalari tufayli ish tajribasi shahar, Respublika miqyosida ommalashdi. Yosh mutaxassisning intiluvchanligi, kasbiga fidoyiligi, iqtidori jamoadagi pedagoglarning hurmatiga sazovor bo'ldi.

2001 yildan esa TSHXTBB metodika Markazida boshlang'ich ta'lim metodisti bo'lib faoliyat boshladi.

Maktabda orttirgan tajribasi, egallagan bilim va mahorati, zamon talablari darajasida ishlashi uchun imkon yaratdi. U o'qituvchi va o'quvchilar uchun ko'plab metodik tavsiyalar, har bir chorak uchun testlar to'plami, mukammal dars ishlanmalari tayyorladi. Turli seminarlar, konferensiyalar, ochiq darslar, ko'rik-tanlovlar o'tkazishda o'qituvchilarga amaliy yordamlar ko'rsatdi. Uning ta'limdagi samarali hissasi tufayli shahar maktablarining ko'plab o'qituvchilari «Yil — o'qituvchisi», «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi», «Yilning eng yaxshi metodisti» ko'rik-tanlovlari g'oliblari bo'ldilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini «Kichik fanlar olimpiadasi»ga tayyorlashda uning tayyorlagan test materiallari o'zining zamon talablariga javob berishi bilan ajralib turdi.

«Yoshlar yili» Davlat dasturiga javoban ta'lim muassasalaridagi yosh mutaxassislariga «Ustoz — shogird» an'analari bo'yicha ko'plab seminarlar, ochiq darslar uyushtirdi. Xalq ta'limi vazirligining «Boshlang'ich ta'lim» yo'nalishidagi fanlar oyiligi»ni o'tkazish, «Ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish» to'g'risidagi buyruqlari asosida darslarida zamonaviy pedtexnologiyalarni qo'llayotgan mohir o'qituvchilar, qobiliyatli o'quvchilarni kashf etishda, ilg'or ijodkor o'qituvchilar ish tajribasini shahar, respublika miqyosida



ommalashtirishda, «Pedagogik grantlar dasturi»da hamda 5 bosqichli «Pedagogik o'qish»larda namunaviy ko'rgazmali qurollar tayyorlash musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallashlarida mehnatlarini ayamadi.

«Ona tilimizda «maktab ko'rgan», «maktab yaratgan» degan chuqur ma'noli iboralarning mavjudligi ham bu muqaddas dargohning, zahmatkash o'qituvchi mehnatining davlat va jamiyat hayotida qanchalik muhim o'rin tutishidan dalolat beradi» deb yozgan edi Yurtboshimiz o'zining «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarida.

Maktab ko'rgan, tarbiya ko'rgan, nainki, murg'ak qalblarga, balki ularning ustozlari bo'lmish o'qituvchilarga ham hayot maktabini berishdek ulkan mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan pedagoglarimizdan biri **Dilfuza Toshmuhamedova**-ning bundan keyingi barcha niyatlari ham amalga oshishini tilaymiz.

T.SOLIYEVA.

B.Rizoqulov fotolari.

QISH MANZARASI

(4-sinflar uchun)

Mavzu: «Qish to'zg'itar momiq par...» Qudrat Hikmat she'ri.

Maqsad: O'quvchilarni tez va ravon o'qishga, mustaqil mantiqiy fikrlashga, guruhlarda ilashga o'rgatish. Bolalarni tabiatga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash.

Jihozi: Darslik, qish manzarasi tasvirlangan rasm-tarqatmalar, ko'rgazmalar.

Darsning borishi

1. Salomlashish.

2. *Bugungi dars tilagi.* Bolalar doska yoniga doira bo'lib, o'zining eng chiroyli, iliq so'zini yonidagi o'rtog'iga aytadi).

Shiorimiz:

Vatan – bizning kelajagimiz!

Guruhlarga bo'linish

O'quvchilar qor, sumalak, yaxmalak deb qish ziynati nomlarini sanaydilar va har bir guruh shu nomlar bilan ataladi. Bolalar o'zlariga tegishli guruhlardan joy oladilar.

O'qituvchi:

– Guruhingiz nomiga ta'rif bering?

1-guruh o'quvchisi:

– O'lkamizda qish fasli hukm surmoqda. Qish faslida tez-tez qor yog'adi. Bizning guruhimiz ham «Qor» nomini olgan. E'tiboringizga yana shuni ma'lum qilmoqchimanki, qarg'alar betinim qag'illasa, tez orada qor yog'ishidan dalolatdir.

2-guruh o'quvchisi:


– Quyosh charaqlab turibdi, lekin havo sovuq. Tarnovlardagi billur kabi sumalaklar qish faslida yanada go'zallik baxsh etadi. Ana shu go'zallikni biz ramziy ma'noda o'z guruhimizga berdik.

3-guruh o'quvchisi:

– Havo toza, beg'ubor. Bolalar issiq kiyimlar kiyishgan. Ular kulgusi borliqni qoplagan. Chunki bolalar zavq-shavqqa to'lib, yaxmalakda chana uchib, konki otishmoqda. Qish, haqiqatan ham juda go'zal fasl.

O'qituvchi: — Qish fasli deganda ko'z oldingizga nimalar keladi?

Javoblar klaster usulida bo'ladi.



— Demak, yangi mavzumiz qish haqida bo'lib, uning nomi: «Qish to'zg'itar momiq par...» she'ridir. She'r muallifi marhum shoir Qudrat Hikmatdir. Diqqat bilan tinglang, — deya o'qituvchi she'ni oxirigacha chiroyli qilib o'qib beradi. So'ng har bir guruh navbat bilan she'ni ifodali tarzda o'qiydi:

Sayab bulut to'shagin

Qish to'zg'itar momiq par...

Bu she'ni qo'shiq qilib kuylash orqali bolalarning dam olish daqiqalari ta'minlanadi.

Lug'at ishi

O'qituvchi: — Bolalar, so'nggi yoqqan qor bizlarga qorxatlar tashlab ketibdi. Kelinglar, o'qib ko'raylik-chi?

1-guruh – serbar

2-guruh – mo'rkon

3-guruh – choyshab

Sharti: Guruhingiz bilan qorxatga yozilgan so'zning ma'nosini tushuntirib, shunga mos kichik she'r yoki to'rtlikni o'qib bering.

1-guruhga:

– She'ning qatorini sanang. Bosh harf bilan yozilgan so'zlar sonini sanab, ularni qo'shing, ko'paytiring, taqqoslang. Masalan, quyidagicha:

Javob: 28+29=57

28x29=812

28 < 29

2-guruhga: — She'ning birinchi 10 va ikkinchi 10 qatorini ko'paytirish va qo'shishda (x , $+$, $<$, $>$, $=$) taqqoslang.

Javob: 30x29=870

30+29=59

30>29

3-guruhga: — She'rni ikkinchi 10 va keyingi 8 qatorini $+$, x da taqqoslang.

Javob: 29+26=55

29x26=754

29>26

Mavzuni mustahkamlash.

Rasmga qarab bolalarning mavzuga oid fikrini eshitib, to'ldirish. Rasmga oid she'r yodlash.

Guruhlarda ishlash.

O'qituvchi: — Siz 1 daqiqa ichida qorning rangiga taalluqli 10 ta narsaning nomini yozasiz va o'qib berasiz. Masalan: sut, qatiq, qaymoq, ohak, paxta, pishloq, qog'oz, un, muzqaymoq, bo'r.

1-guruhga *savol:* — Vatanimiz o'tmishiga doir hikoyalar orqali buyuk ajdodlarimizdan kimlarning hayoti va ishlari bilan tanishdingiz?

2-guruhga *savol:* — O'qigan hikoyalaringiz asosida Vatanimizning o'tmishi bilan hozirgi davrini taqqoslay olasizmi?

3-guruhga *savol:* — Siz bugun nimani o'rgandingiz?

Hamma savollarga to'liq javob bergan, guruhlar ishlarida faol qatnashgan o'quvchilar, uyda yangi mavzuga oid rasm chizib kelgan bolalar rag'batlantiriladi.

Guruhlar ballanib, g'oliblar aniqlanadi.

Uyga vazifa:

She'rni yod olish. Yangi mavzuga tayyorlanib kelish.

Feruz QURBONOVA,
Farg'ona viloyati, Dang'ara
tumanidagi 14-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

O'QITUVCHI TIMSOLI

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvurida o'qituvchi timsolini o'rganish borasida psixologik tadqiqot olib borishga harakat qildik. Shu maqsadda «Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvurida o'qituvchi timsoli» anketasidan foydalandik. Ushbu anketa yuqori sinf o'quvchilarining o'qituvchilarga munosabatini o'rganish anketasining modifikatsiya qilingan shakli bo'lib, unda o'qituvchining pedagogik, kasbiy faoliyati va shaxsiy fazilatlarini o'rganish nazarda tutildi.

Unda bolalardan mehribon, muloyim, quvnoq tabiatli, o'quvchisini tushunadigan, qattiqqo'l, bilimli, xushmuomala, rostgo'y, talabchan, o'ziga ishongan, adolatli kabi sifatarni ustoz shaxsida shakllanganligini 5 balli tizim bo'yicha baholash so'raldi. Bunda 1 ball va 5 balli natijalar chegara qilib olindi.

Tadqiqotda 296 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Izlanish natijalari chog'ida boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qituvchini tasavvur qilishda o'ziga xoslik kuzatildi.

(Jadvalga qarang)

O'quvchilar tasavvuridagi o'qituvchi timsoli ko'rsatkichlari (ball hisobida)

	Fazilatlar	Sinflar				Umumiy o'rtacha
		1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	
1.	Mehribon	4,78	4,24	3,98	3,66	4,16
2.	Muloyim	4,66	4,45	4,22	4,10	4,35
3.	Quvnoq tabiatli	4,02	3,61	3,54	3,21	3,6
4.	O'quvchilarni tushunadigan	4,68	4,36	4,21	4,36	4,40
5.	Qattiqqo'l	4,77	4,65	4,34	4,30	4,51
6.	Bilimli	5,0	4,92	4,85	4,80	4,89
7.	Xushmuomala	3,96	3,87	3,30	3,42	3,63
8.	Rostgo'y	5,0	4,80	4,71	4,66	4,79
9.	Talabchan	5,0	4,32	3,78	3,42	4,47
10.	O'ziga ishongan	5,0	4,70	4,68	4,64	4,75
11.	Adolatli	4,52	4,56	4,50	4,31	4,47

Eng yuqori natija – eng bilimli 4,89 ball va rostgo'y inson sifatida 4,79

ball baholanganliklaridir. Demak, o'quvchilar o'qituvchilarini eng bilimli, ko'p narsadan xabardor inson sifatida idrok qilar ekanlar. Ko'rinadiki, boshlang'ich sinflarda o'qituvchi tomonidan beriladigan har bir ma'lumot va uning ko'rsatmalari o'quvchilar uchun eng ishonchli va to'g'ri deb qabul qilinadi. Bu esa o'qituvchining kasbiy komponenti — bilimligi bilan uning shaxsiy fazilati — rostgo'yligini o'zaro bog'langan holda baholay olganlar. Shuningdek, o'qituvchilarining irodaviy xususiyatlari ahamiyatini ko'rsata olgan, ya'ni, o'qituvchi ular tasavvuridagi o'ziga ishongan shaxs 4,75 ball sifatida qabul qilingan. Bu esa o'quvchilar o'z ustozini «ideal» inson sifatida qabul qilishlarining belgisidir.

Tadqiqotda o'quvchilar o'qituvchining quvnoq tabiatligini 3,6 ball va xushmuomalalik sifatlarini 3,63 ball belgilab, uni boshqa fazilatlariga nisbatan pastroq baholaganlar.

Bu ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatida xushmuomalalik, samimiy munosabatning yetishmasligi oqibatidir, degan taxmini ilgari surishga imkon beradi.

O'quvchilar tasavvurida xushmuomalalik va quvnoqlikdan tashqari ularga ustozlarining mehribonligi 4,16 ball va o'quvchilarni tushunish-4,40 ball larida ham past baholangan. Bundan ko'rinadiki,

o'qituvchining pedagogik faoliyatida shaxslararo munosabat yetakchi o'rin egallashi psixologik nuqtai nazardan doimo urg'u beriladigan jihatlar hisoblanadi, ammo amaliyotda esa o'qituvchilar bunga kamroq e'tibor qaratmoqdalar.

Yana bir jihat — boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim bosqichi o'zgarib borgan sari o'qituvchining fazilatlariga berilgan baholar dinamikasida o'sishdan ko'ra pasayish kuzatiladi. Birinchi sinf o'quvchilari o'qituvchini bilimli (0,5), rostgo'y (5,0), talabchan (5,0) va o'ziga ishongan (5,0) tarzda baholagan bo'lsalar, 2-, 3-, 4-sinflarda esa ushbu sifatlar bo'yicha ko'rsatkichlar pasayib borgan. Demak, o'qituvchilarning dastlabki taassurotlari keyinchalik ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan kuzatishlar, o'qituvchining faoliyat natijalari va munosabatini taqqoslab borishlari ular haqidagi tasavvurlarining o'zgarib borishiga olib kelar ekan. O'qituvchi timsoliga nisbatan baholarning o'zgarishi deyarli barcha sifatlarda ko'zga tashlanadi.

Xulosa qilib aytganda:

1. O'qituvchi timsoliga beriladigan baho boshlang'ich sinfning dastlabki bosqichida yuqori bo'lib, keyinchalik ta'lim bosqichi o'zgarishiga qarab pasayishi mumkin ekan.

2. O'qituvchilarning har doim ham o'quvchilar tomonidan berilayotgan baholar natijalarini tahlil etishga moyil emasligi ularning shaxsiy va kasbiy kamolotida uchraydigan nuqsonlarni bartaraf etishda e'tiborsiz bo'lishlariga olib kelar ekan.

3. O'qituvchi o'quvchilarning birinchi sinfdagi tasavvurlari ta'sirini ta'limning qolgan bosqichlarida ham saqlashga erishsalar, ta'lim samaradorligi yanada yuqoriroq bo'ladi.

R.ATAJONOVA,
Nizomiy nomidagi
TDPU tadqiqotchisi.

IZLANUVCHAN, ZAMONAVIY, TASHABBUSKOR

Barchamizga ma'lumki, qayerda ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor kuchli bo'lsa, o'sha yerda mamlakat har tomonlama taraqqiy topadi. Yurti obod, kelajagi porloq bo'ladi. Dunyoda hech bir mamlakat yo'qki, o'z e'tiborini yurtimizchalik taraqqiy ettirishga, yosh avlodning zamon talabi darajasidagi o'quv dargohlarida ta'lim olishga qaratgan bo'lsa. O'tgan yilimizni Prezidentimiz tomonidan «Yoshlar yili», 2008-2009 o'quv yilning «Ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish o'quv yili» deya e'lon qilinganligi ham o'sib kelayotgan farzandlarimizning Vatan suyanchig'i, uning ravnaqi uchun jonbozlik ko'rsatadigan insonlar bo'lib yetishishlari yo'lidagi sa'y-harakatlardan biridir. Bugungi kunda eng ilg'or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish, uni ta'lim jarayoniga tadbir qilib ham mazkur tizimni isloh qilish va rivojlantirishga doimiy e'tibordir aslida. Bu borada «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», Davlat Umummilliy dasturi kabi bebaho hujjatlar, o'quv dasturlarini takomillashtirish, unga doir qator yo'l-

yo'riqlar, Respublika Xalq ta'limi vazirligining «Umumiy o'rta ta'limning takomillashtirilgan Davlat ta'lim standartlari» soha oldida turgan dolzarb muammolar yechimida asosiy rol o'ynaydi. Joriy o'quv yilining — «Ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish o'quv yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan tuzilgan dastur va chora-tadbirlarning amalga oshirilishi hamda keng targ'ib qilinishi ham bugungi kunda o'qituvchilar va o'quvchilar orasida ijodkorlik muhitini yaratishga katta omil bo'lmoqda.

«Boshlang'ich ta'lim fan oyli»ning keng ko'lamda o'tkazilishi ham ular faoliyati qirralarini ochishga imkon berdi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar orasida tashkil etilgan «Eng ijodkor va zamonaviy o'qituvchi» tanlovining asosiy maqsadi o'qituvchilar o'rtasida ijodiy muhitni yanada shakllantirish, ular ichidan eng salohiyatli, kasbiy mahoratga ega, ijodkor o'qituvchilarni aniqlash edi. Yosh o'qituvchilarimizdan G.Yusupova, Z.Yusupova, Z.Islomova, K.Ashilovalar ushbu tadbirda faol

ishtirok etishdi. Bu ta'lim maskanimizda «Ustoz — shogird» maktabi an'alarining belgilangan talablar asosida faoliyat ko'rsatayotganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda Respublikamizda o'zining «Navoiy tajribasi» bilan mashhur viloyatimizning ta'lim sohasida erishayotgan yutuqlari nihoyatda salmoqli. Viloyat XTBB tomonidan 2008 yilning «Boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim mazmunini takomillashtirish o'quv yili» deb e'lon qilinganligi ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari g'ayratiga-g'ayrat qo'shdi. Chunki, o'tgan 2008 yilning dekabr oyida maktabimizda o'tkazilgan «Boshlang'ich ta'lim» fan oyliqidagi bir qancha tadbirlarda, shuningdek, SHXTBda bo'lib o'tgan «Ijodkor o'qituvchi», «Eng yaxshi dars ishlanmasi», «Eng namunali buklet», «Eng yaxshi test banki», «Eng zamonaviy dars jihozi» kabi tanlovlarda o'qituvchilarimiz yuqori o'rinlarni egallab, viloyat bosqichiga yo'llanma olishdi. Bu biz erishayotgan muvaffaqiyatlarning ayrimlari xolos.

Quyida e'tiboringizga yosh, shijoatli o'qituvchilarimiz o'rtasida bo'lib o'tgan ana shunday tadbirlardan biri bo'lmish «Ijodkor, zamonaviy tashabbuskor» deya nomlangan tadbir ssenariysini havola etamiz.

Ko'rik-tanlov o'ziga xos bayramona ruhda va uslubda bezatilgan informatika xonasida o'tkaziladi. Tadbir uchun kerak bo'ladigan barcha jihozlar va texnik vositalar oldindan tayyorlab qo'yiladi. Tanlovni 2 boshlovchi olib boradi.

Mayin kuy sadolari ostida boshlovchilar sahnaga chiqishadi.

1-boshlovchi:

— Maktab obod bo'lsin, avlod
barkamol,
Deb tunlari bedor reja tuzasiz.



Orzulari oydin har o'g'il-qizni,
Bolangizdan ziyod yaxshi ko'rasiz.

2-boshlovchi:

— Yuksalib boradi siz ekan nihol,
Beg'ubor shogirdlar qalbi-qo'rida.
Albatta, u bir kun quchadi iqbol,
Sizga mehri balqir nigohlarida.

1-boshlovchi:

— Barcha ustozlarning qismatlari
bir,
Shogirdlar yuksalsa, yashnab
yurasiz.

Ko'ngillarga singib ketasiz nurdek,
Yorqin manzillarga chorlab
turasiz!

— Assalomu alaykum, hurmatli
mehmonlar, mo'tabar ustozlari
shogirdlar, bugungi tadbir
ishtirokchilari! Mana shunday
muborak kunlarda sizlar bilan
uchrashib turganimizdan boshimiz
ko'kka yetib, sizlarga chin yurakdan
xush kelibsiz, azizlar! — deymiz.

— Aziz mehmonlar, muhtaram
davramiz qatnashchilari! Biz
o'zimizga berilgan imkoniyatdan
foydalanib kundan-kunga ravnaq
topib, rivojlanib borayotgan ona
Vatanimiz, xalqimiz ardoqlagan kasb
egasi bo'lish sharafiga muyassar
bo'lib, endigina pedagogik faoliyatini
boshlagan yosh o'qituvchilarni, ilk
bora o'z mutaxassisliklari bo'yicha
o'tkazilayotgan ushbu musobaqada
ishtirok etayotganliklari bilan samimiy
tabriklaymiz. Ularning ishlarida
kattadan-katta omadlar tilaymiz va
Ustoz degan buyuk nomga hech
qachon dog' tushmasligini tilagan
holda bugungi ko'rik-tanlovimiz
ishtirokchilari bilan sizlarni
tanishtirib o'tamiz.

— 1-raqamli ishtirokchimiz -
Buxoro pedagogika kollejini tugatgan,
o'rta maxsus ma'lumotga hamda 3
yillik ish faoliyatiga ega 1-«G» sinf
o'quvchilarining kuni uzaytirilgan
guruh rahbari Gullola Yusupova.

2-raqamli ishtirokchimiz - NDPIda
tahsil olgan, oliy ma'lumotli va 2 yillik
ish faoliyatiga ega, 2-«A» sinf
o'quvchilarining sevimli ustози
Kenjegul Ashilova.

3-raqamli ishtirokchimiz -
Kattaqo'rg'on pedagogika kollejini
bitirgan, o'rta maxsus ma'lumotli, 2
yillik ish tajribasiga ega, 1-«V» sinf

o'quvchilarining kuni uzaytirilgan
guruh rahbari Zemfira Islomova.

4-raqamli ishtirokchimiz esa
Navoiy pedagogika kollejini
tamomlagan, o'rta maxsus
ma'lumotli, 3 yillik ish faoliyatiga ega,
4-sinf jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi
Shahloxon Boymurodova.

Tanlov ishtirokchilari tanishtiruv
jarayonida birma-bir sahnaga
chiqishadi va qo'lini ko'ksiga qo'yib
mehmonlarga ta'zim qilgach, safga
qo'shilishadi. Tanishtiruv tugagach,
o'quvchilar ijrosida raqs ijro etiladi.

1-boshlovchi: — Aziz tanlov
ishtirokchilari, hamda mehmonlar,
endi sizlarni bugungi tadbir
hakamlik qiluvchi hay'at a'zolari bilan
tanishtirsak:

Maktabimiz direktori Sh.
Yakubayev, SHXTB dan kelgan
vakillar va informatika fani o'qituvchisi
Xolida Davlatovalar. Ular tanlov
ishtirokchilarning qay darajada zukko
hamda salohiyatli ekanliklarini
xolisona baholab boradilar.

2-boshlovchi: — Bizga
ma'lumki, bugungi kunda barcha
sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimida
ham faoliyat yuritayotganlarning
asosiy qismini yoshlar tashkil etadi.
O'zi faoliyat yuritayotgan maktabning
eng ilg'or o'qituvchilaridan bo'lish
uchun yosh mutaxassisdan nimalar
talab qilinadi? Barchamiz yaxshi
bilamizki, yosh mutaxassis shijoati,
qiziquvchanligi, ijodkorligi,
shuningdek, iniriluvchanligi bilan
ajralib turmog'i, yangi axborot
texnologiyalaridan foydalanishni a'lo
darajada bilmog'i kerak. Bugungi
tanlovimiz shartlarini ham axborot
kommunikatsion texnologiyalardan
samarali foydalangan holda
bajarishlarini nazarda tutib tuzdik.
Endi esa tanlov shartlari bilan
tanishtirsak.

1-shart. Tanishtiruv. Tanlov
qatnashchilari o'zlari haqida she'riy
usulda atroflicha ma'lumot beradilar.

Mutaxassisligi bo'yicha endigina
maktabga kelgan yosh o'qituvchi
faoliyati davomida o'zining bor iqtidor
va salohiyat qirralarini namoyon
etmog'i shart. Ana shunday
qirralardan biri — o'qituvchining
kompyuter texnologiyalaridan qay
darajada foydalana olishidir. Bugun

biz ularni mana shu borada nechog'li
bilimdon ekanliklarini sinab ko'ramiz.

2-shart.

Axborot
kommunikatsion texnologiyalaridan
foydalangan holda «Raint» dasturi
asosida ishlash. Bunda ishtirokchilar
dars mavzusiga doir ko'rgazma
tayyorlashadi. Shart konvert ichiga
solib qo'yilgan «Oltin kuz», «Vatanimiz
bayrog'i», «Bog'da», «Baxtli bolalik»
mavzulari asosida bajariladi.
Ishirokchilarning bajargan ishlari
hakamlar hay'ati tomonidan
baholanadi. Informatika fani
o'qituvchisi qatnashchilarining shartni
qanday bajarayotganliklarini nazorat
qilib turadi va shart yakunida
o'qituvchilar ishiga atroflicha baho
beradi.

2-shart bajarilguncha yosh
mutaxassislarning o'z kasb faoliyatlari
haqida tayyorlagan eng yaxshi buklet
egasi aniqlanadi va navbatdagi
shartda ularning nomlari e'lon
qilinadi.

3-shart. O'qituvchilarning
mutaxassisliklari bo'yicha ilg'or
pedagogik texnologiyalar asosida
«Darsning tuzilish strukturasi»ni
yaratish. Shartni har bir ishtirokchi
quyidagicha bajarishi mumkin:

— Darsning mavzu asosida
tuzilgan maqsadi;
— darsning turi;
— dars uslubi;
— darsning didaktikasi (jihozi);
— darsning borishi;
— darsning rejası;
— dars yakuni.

Shartlar baholangunga qadar
o'quvchilar ijrosida she'r va ashulalar
ijro etiladi.

Hakamlar hay'ati a'zolari tanlov
nihoyasida tadbir ko'tarinki kayfiyat
va do'stona ruhda o'tgani uchun
ishtirokchilarni tabriklab, jami ballarni
e'lon qiladi. To'plagan ballar soniga
ko'ra «Eng ijodkor va zamonaviy
o'qituvchi» aniqlanadi va
ishtirokchilarga esdalik sovg'alari
hamda «Maqtov yorlig'i» taqdim
etiladi.

**Matluba TUYDIJANOVA,
Navoiy viloyati, Zarafshon
shahridagi 2-umumiy o'rta ta'lim
maktabining o'quv ishlari bo'limi
mudiri.**

SOG'LOM TURMUSH – UMR GAVHARI

(4-sinflar uchun)

Mavzu: Huquqbuzarlikning oldini olish

Maqsad:a)Ta'limiy: huquqbuzarlik, uning noxush oqibatlarini haqida, ichkilik, tamaki chekish, giyohvand moddalarni qabul qilish, sog'lom turmush kushandasi ekani borasida atroficha tushuncha berish.

b) Tarbiyaviy: yoshlarga jinoyat jazosiz qolmasligi, basharti biror kishi jinoyat yo'lini tutsa, u, albatta, qilmishiga yarasha javobgarlikka tortilishi muqarrar ekani to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish.

s) Rivojlantiruvchi: yosh avlodni ma'nan barkamol, jismonan sog'lom va baquvvat kamol topishini ta'minlash.

Darsning jhozi: mavzuga oid turli rasmlar, video tasmlar.

Darsning borishi:

O'quvchilar bilan o'tilgan mavzular bo'yicha qisqa savol-javob o'tkaziladi.

Yangi mavzuning bayoni:

O'qituvchi:

– O'quvchilar, bugun biz siz bilan «Huquq nima?», «Huquqbuzarlikning ayanchli oqibatlarini» mavzularida suhbatlashamiz. Suhbat asnosida «Nima yaxshi-yu, nima yomon?» degan savolga ham javob beramiz.

– Huquq – davlat hokimiyati tomonidan belgilanadigan va qo'riqlanadigan, jamiyatda kishilarning o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan qonun-qoidalar, me'yorlar majmuidir.

Har bir inson kichikligidanoq o'z haq-huquqlarini tanib, kattalar oldidagi burch va mas'uliyatlarini to'g'ri anglab, ma'nan va jismonan barkamol avlod bo'lib shakllanishi lozim.

Ma'lumki, kichiktoylar hayotda hammadan ko'proq himoyaga muhtojdirlar. Hatto «Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya»da ham ularning haq-huquqlari, himoyasi haqida sog'lom rivojlanishini ta'minlash borasida alohida ta'kidlab o'tilgan.

– Endi ayting-chi, «Bolalar huquqlari to'g'risida Konvensiya» qachon qabul qilingan?

Bolalar birin-ketin javob beradilar.

– BMT tomonidan 1989 yilda qabul qilingan.

– Ushbu Konvensiyani O'zbekiston Respublikasi 1992 yilda rasman tan oldi.

– Konvensiya 54 moddadan iborat. Uning mazmuni bilan nafaqat bolalar, balki, kattalar ham tanishib chiqsalar foydadan xoli bo'lmaydi.

Shu o'rinda o'quvchilar tomonidan Konvensiyaning ayrim moddalaridan misollar keltirib o'tiladi.

6-modda. Yashash va sog'lom rivojlanish huquqiga egasan.

24-modda. Zarur tibbiy yordam ko'rsatish va sog'lig'ingni saqlash huquqiga egasan.

– Salomatlik inson uchun eng aziz ne'matdir. «Salomatlik — tuman boylik» naqli insonlarni o'z sog'ligini asrashga, o'zini parvarish qilishga, aql bilan ish tutishga da'vat etadi.

– Badanni yuvib, tozalab turish, oz yeb, oz ichib, oz gapirishga amal qilish, shu bilan birga nafsni ham, qalbni ham pok va sof holda tutish, go'zal odobli bo'lish salomatlik uchun qayg'urishdir.

– Inson salomatligini, kuchini, obro'yini ketkazadigan illatlar oxir-oqibat uni jar yoqasiga olib keladi. Spirtli ichimliklar ichish, tamaki chekish, giyohvandlikka ruju qo'yish har qanday odamni kunpayakun qiladi, umriga zomin bo'ladi.

33-34-moddalar.

– Giyohvand moddalardan g'ayriqonuniy ravishda iste'mol qilish, ulardan shahvoniy maqsadlarda foydalanish shakllaridan himoya qilinish huquqiga egasan.

– Tamaki chekish (insonlar) aholi orasida eng ko'p tarqalgan

yaramas odatdir. Kashandalar sigareta charchoqni yozadi, deb o'ylashadi. Afsuski, bu noto'g'ri tushuncha. Sigaret chekilgandan so'ng oradan ozgina vaqt o'tgach, miyaning qon bilan ta'minlanish darajasi sustlashadi, chunki qonga inson sog'ligi uchun nihoyatda zararli bo'lgan nikotin moddasi tushadi.

Bolalar kichik sahna ko'rinishi orqali chekishning o'ta og'ir oqibatlariga olib kelishini namoyish etadilar.

Boshlovchi voqea tafsilotini sekin bayon etadi. Shavkat rolidagi bola voqea jarayonini tasvirlab beradi.

– Shavkat o'n yoshida tog'asining sigareta chekishiga taqlid qilib, yerda yotgan papiros qoldig'ini olib, og'ziga soladi. Bu unga yoqimli tuyuladi. Maktabga borishdan oldin onasidan ovqatlanish uchun pul so'rab, o'sha pulga sigareta sotib ola boshlaydi. Keyinchalik bu hol odat tusiga kiradi va u batamom chekishga ruju qo'yadi. Shu tariqa Shavkat ashaddiy kashandaga aylanadi. Oqibatda yoshgina bo'la turib, uning o'pkasi nikotindan zararlanadi va kasal bo'lib yotib qoladi. Shifokorlar xulosasiga ko'ra, Shavkat bedavo dard - o'pka saratoniga muhtalo bo'lgan edi.

– Chekish oqibatida tomirlarda qon aylanishi yomonlashadi va yurak turli og'ir kasalliklarga chalinadi. Chekish nafaqat inson salomatligiga putur yetkazadi, balki yon atrofdagi chekmaydigan kishilarga, ayniqsa, yosh bolalarga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tamaki tutuniga to'la xonada o'tirgan yoki chekayotganlar orasida bo'lgan kishida, ayniqsa, go'dakda bosh og'rig'i, tushkun kayfiyat, lanjlik zohir bo'ladi.

– Donishmandlardan biri aytgan ekan: Bolalar eng avvalo havasga chekadilar. Agar yoshlar salomatlik – tuman boylik ekanini va sihat-salomatlik o'zlariga bog'liqligini tushunsalar edi, ular shunchaki «rohat» qilish uchun bu illat girdobiga tushmas edilar.

Salomatlikning yana bir dushmani -

giyohvand moddalardir. Uning ta'sirida inson jamiyatdagi o'rnini butkul yo'qotadi, hayotdan bemahal ko'z yumib, umrini xazon qiladi.

Yana biri esa ichkilik bo'lib, bu illat asiriga aylangan odam hayotdagi barcha go'zalliklardan bebahra qoladi. Ko'pning nafratiga duchor bo'lib, o'z nomiga dog' tushiradi.

Bolalar salomatlik, sog'lom turmush tarziga rioya qilish haqida she'rlar, shuningdek, maqollar, hadislardan namunalar aytib, yuqoridagi fikrlarni to'ldiradilar.

Salomatlik – tuman boyluk.

Sog' yurak – tog' yurak.

Sog' olma – shoxdan tushmas.

Bola sog'lig'i – ona boyligi.

Sog'lig'ing – boyliging.

Sog'lig'ing – pokliging.

Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'lur.

Shundan so'ng jamiyatdagi yomon illatlardan hisoblanmish jinoyat va uning oldini olish haqida ham suhbat uyushtiriladi.

O'qituvchi jinoyat va uni sodir etuvchi shaxs – jinoyatchi deb atalishi, bu illatga bezorilik, o'g'irlik, birovlarini haqorat qilish va urish, tanasiga shikast yetkazish, mashinalarga, poyezdlarga tosh otish kabi harakatlar kirishi, bolalarning jinoyat yo'lga adashib kirib qolmasligi uchun barchaning doimo hushyor bo'lishi lozimligiga ham to'xtaladi. Bolalar jinoyatchilik borasidagi fikrlarni to'ldiradilar.

– O'g'irlik – boshqalarning mulkini hech kimga bildirmasdan yashirin ravishda o'ziniki qilib olishdir.

Ayrim bolalar tengdoshlarining buyumlarini, daftar, ruchka, pulini olib qo'rganida bu harakati bilan jinoyatga qo'l urishganini bilmaydilar. Bolalar, biz bu kabi salbiy harakatlardan o'zimizni tiyishimiz lozim. (*Shu o'rinda yana bir sahna ko'rinishi namoyish etiladi*). Akmal maktabdan qaytayotganida yo'l chetida mevalari qip-qizil pishib yotgan olma daraxtiga ko'zi tushadi. U olmalardan yegisi kelib yon atrofga alanglaydi. Hech kim yo'qligiga ishonch qilgach, daraxtga tosh otib, olmalarni qoqib tushirdi va ularning eng yaxshilarini tanlab olib, yo'lida davom etadi.

— Qani ayting-chi, bolalar, Akmal

to'g'ri ish qildimi? Bu holni nima deb ataymiz?

Bolalar o'z fikrlarini bayon etadilar va maqollardan misol keltirib o'tadilar.

– Berma ozor kishiga, qilma o'g'irlik zinhor,

O'g'ri doim chekadur ranju uqubat bisyor.

Donolar aytadilar:

– Nafs deb odamlar etiboridan qolish yomon.

– El e'tiboridan qolgan o'g'ri, Umrbod xorlikda yashab o'tadi.

– Hirs va ochko'zlik zanjiriga bog'langan bo'yin pushaymonlik tig'i bilan kesiladi.

– Ayrimlar o'z nafsini tiya olmasliklari oqibatida qimmatli umrini nopok ishlarga sarflaydilar.

– Yalqovlik odamni mehnatdan bezdirib, kasallik keltiradi, tabiatini buzib, muhtojlikka olib keladi. Bu dunyoda odam faqatgina mehnat orqasidagina qadr topadi. Mehnatni sevmaydigan yalqov kishi, har turli nomaqbul ishlardan tap tortmaydi va el nafratiga uchraydi.

– Insonning bittagina zolimi bor, u ham bo'lsa jaholatdir.

– Jaholat insoniyatning eng ashaddiy dushmanidir.

– Jaholat zulmatdir.

Bir donishmanddan so'radilar:

– Qanday alomatlar odamning baxtli ekanidan dalolat beradi?

Donishmand aytdi:

– Halol mehnat, saxiylik, g'ayrat, ochiq yuzlilik va shirin so'zlilik baxtli odam alomatidir.

– Donishmanddan yana so'radilar:

– Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima-yu eng yomon narsa nima?

Donishmand javob berdi:

– Dunyoda inson uchun eng go'zal narsa axloq, tarbiya, g'ayrat bo'lib, shu go'zal xislatlar bilan nom chiqarishdir. O'limdan ham battar yomon narsa esa tarbiyasizlik va yalqovlik bilan shuhrat qozonishdir.

Yana so'radilar:

– Eng aqlli odam kim?

Donishmand dedi:

– Ko'p narsani bilib, kam so'zlagan, o'z bilimiga mag'rur bo'lib bilimdonlik qilmagan odam, eng aqlli odam hisoblanadi.

Aflotun Hakim aytdi:

– Men fidokorona qilingan mehnatdan hosil bo'ladigan rohatni hech narsada ko'rmadim, chunki tanamning salomatligi, ruhimning saodatini mehnatda topdim. Shuning uchun mehnat – saodatning o'zginasi, deyman.

Fariddin Attor aytadi:

– To'rt narsani to'rt narsadan, ya'ni dilni hasaddan, tilni yolg'on va g'iybatdan, qilgan ishingni munofiqlikdan va qo'lingni haromdan pok tut, shundagina chin inson hisoblanasan. Ey o'g'il, hech vaqt dilozor bo'lma, dilozorlik bir kun falokat keltiradi, mutakabbir bo'lishdan o'zingni saqla. Takabburlik johillar odati, aqlli odamlar mutakabbir bo'lmaydilar.

Abu Ali ibn Sino aytadi:

– Hayo insonning abadiy go'zalligi va latofatidir.

Hayosiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi.

– Beadablar bazmidan bo'lgin yiroq,

Ko'p yiroq bo'lsang, tag'in ham yaxshiroq.

Dars so'ngida barcha ma'lumotlar umumlashtiriladi va savol-javob orqali mustahkamlanadi. Bu jarayonda o'quvchilarning faol ishtiroki katta ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi (yakunlovchi so'zini aytadi): — Aziz o'quvchilar, bugun biz siz bilan huquqbuzarlik, giyohvandlik, ichkilik, chekish, o'g'irlik kabi insonga xos bo'lmagan barcha uchun eng zararli illatlar haqida so'z yuritdik. Biz hech qachon bu kabi illatlar qurboni bo'lmaylik. A'lo o'qish, mehnat qilishdek chin insoniy xislatlar va o'zimizning go'zal fazilatlarimiz bilan Vatanimizga sodiq farzandlar bo'lishga harakat qilaylik. Yuqoridagi noxush holatlar umrimiz zavoliga aylanmasin.

Mashg'ulot yakunida video tasmlar orqali o'quvchilarga giyohvandlikning ayanchli oqibati haqidagi hujjatli filmdan lavhalar ko'rsatiladi.

**Lola ZOIROVA,
Samarqand viloyati,
Narpay tumanidagi
64-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.**

TINCHLIK-TOTUVLIK MASH'ALI

(4-cinflar uchun)

Sahna Toshkentning bugungi ko'rinishi tasvirlangan go'zal rasmlar, turfa gul va sharlar bilan bezatiladi. Barcha viloyatlar haqida ma'lumot beruvchi rasmlar, rango-rang bukletlar ko'rgazmasi tashkil etiladi.

To'rga «Toshkentim, 2200 yillik to'ying muborak bo'lsin!» shiori osiladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi yangraydi. Bir o'quvchi chiqib Prezidentimiz I.Karimovning Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risidagi maxsus Qarorini o'qib eshittiradi.

Magnit tasmasidan «Toshkentim-onam» qo'shig'i yangraydi. 4-«D» sinf o'quvchilari sahnaga mezbon sifatida kirib keladilar. Yarim doira shaklida tizilib turadilar va qo'llaridagi harflar asosida «Toshkent — 2200 yil» degan yozuvni hosil qiladilar. Bolalar ona shahrini madh etib she'r aytdilar.

— Bu kurrai-zaminda azaliysan,
Toshkentim.
Shaharlarning sardori,
go'zalimsan, Toshkentim.
Tobora fayzing ortar, nash'alsan,
Toshkentim.

Qadimdan tinch-totuvlik
mash'alsan, Toshkentim.

— Istiqlool olgan yurtning
poytaxtisan, baxtisan,
Ishchi ahli himmati, bunyodkorlar
shahrisan.

Anjumanlarga ma'no, ijod, ilhom
nahrisan,
Sen ilmu fan peshvosi, o'zbek
yurtim faxrisan.

Tarovatli Toshkentim, saxovatli
Toshkentim.

*Boshlovchilar tantanani davom
ettiradilar.*

— Assalomu alaykum, aziz
mehmonlar!

Davramizga xush kelibsiz!

— Bugun maktabimizda katta
bayram!

Yurtimiz poytaxti, vatanimiz yuragi,
ona shahrimiz — Toshkentimizning
2200 yilligi oldidan ajoyib tadbir
o'tkazmoqdamiz.

— Bu tadbirga katta-yu kichik
barcha birday tayyorgarlik ko'rdi.
Marhamat, bayramimizni tomosha
qiling!

*Bolalar ijrosida «Toshkent»
qo'shig'i yangraydi.*

*O'quvchilar azim shaharga ta'rif
beradilar.*

— Toshkent shahri O'zbekiston Respublikasining poytaxti, Toshkent viloyatining ma'muriy markazidir. U Markaziy Osiyodagi eng qadimgi shaharlardan biridir.

— Juda qadimda Toshkent «Choch» deb atalgan. Arablar qo'lga o'tgach esa «Shosh» deb yuritilgan. Keyinchalik «Shoshkent», «Madinat-at-shosh», «Bunkat», «Tarkan» deb ham nomlangan. O'shanda ham bu azim maskan hozirgidek sharq darvozasi vazifasini bajargan. Turli shaharlardan yo'lga chiqqan savdo karvonlari bu manzilda bir muddat to'xtab, o'tishgan.

— Dushmanlardan himoya qilish maqsadida shahar atrofi mustahkam tosh devorlar bilan o'ralgan. Shaharga kirib chiqadigan ulkan darvozalar qurilgan.

— Toshkentning 12 ta darvozasi bo'lib, bular: Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Sag'bon, Chig'atoy, Ko'kcha, Samarqand, Kamolon, Beshyog'och, Qo'yman, Qo'qon, Qashqar deya atalgan. Shahar darvozalari qorong'u tushishi bilan yopilgan va erta saharda ochilgan.

Darvozalarning mustahkamligini ko'rgan sayyohlar ularga «Tosh qal'a», «Toshminor», deya ta'rif berganlar.

— 1865 yilga kelib, Toshkent darvozalari birin-ketin buzib tashlangan.

— Toshkent aholisi qadimdan chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, zargarlik bilan shug'ullanib kelishgan.

— Buyuk Ipak yo'lining shahar hududidan o'tishi, iqlimining yaxshiligi, tog'lardagi konlarning yer yuziga yaqinligi qadimdanoq bu shaharning poytaxt bo'lib qolishiga zamin yaratdi.

— XIX asrga qadar Toshkentning asosi to'rtta daha — ya'ni, to'rt qismdan tashkil topgan. Bular: Ko'kcha, Sebzor, Beshyog'och, Shayxontohurdir.



— Har bir daha ko'plab mahallalarni o'z ichiga olgan. Hozirgi kunga kelib Toshkentda 280 ga yaqin mahalla mavjud bo'lib, unda turli millat vakillari tinch-totuv yashamoqdalar.

— Toshkent XIX asrga qadar qo'shni mamlakatlarning bir necha bor hujumlariga uchragan, biroq, shunga qaramay, tez orada o'z qaddini rostlayvergan.

— 1930 yildan buyon Toshkent O'zbekistonning poytaxtidir. Toshkentni «Non shahri» ham deyishadi, chunki bag'rikeng toshkentliklar 1941-1945 yillarda bo'lib o'tgan Ikkinchi Jahon urushi davrida evakuatsiya qilingan 300 000 nafar kishini o'z bag'riga olib, boshpana berganlar. Ulardan 200 000 nafarga yaqini ota-onasi urushga ketgan va halok bo'lgan yetim bolalar edi. Bu haqda yozuvchi Rahmat Fayziy o'zining «Hazrati inson»ni romanini yozgan, film ham yaratilgan.

— Toshkentni tinchlik va do'stlik shahri deyishadi, chunki 1966 yilning aprel oyidagi kuchli zilzila oqibatida shahar katta talofat ko'rgan. Bizga qo'shni qardoshlarimiz yordam qo'lini cho'zib, Toshkentni qayta qurishda ko'maklashib, uni go'zal va obod do'stlik shahriga aylantirishgan.

— Shahar hududida bir qancha qadimiy obidalar saqlanib qolgan, hozirda ular ta'mirlanib, davlat muhofazasiga olingan. «Ko'kaldosh», «Baroqxon» madrasasi, «Zangiota», «Hazrati Imom» ziyoratgohlari, «Shayx Zayniddin bobo» maqbarasi shular jumlasidandir.

— Toshkentda juda ko'plab allomalar yashab o'tganlar. Islom tariqati vakillaridan Ismoil Kaffol Shoshiy, Xo'ja Ahror Valiy, Hofiz Ko'kakiy, tarixchi olimlardan Abdujamil Vasifiy, Muhammad Solih Rahim Qoraxo'ja o'g'li, ma'rifatparvar Munavvarqori Abdurashidxonov, yozuvchi va shoirlardan Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur Gulomlarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

— Endilikda mustaqillik sharofati ila Toshkentning qiyofasi kundankunga go'zallashib, chiroy ochib bormoqda.

— Ko'plab hashamatli binolar qad rostladi. Chet el elchixonalari, BMT, YUNESKO va YUNISEF kabi Xalqaro



I.Hasanov fotolari.

tashkilotlarning vakolatxonalari faoliyat yurita boshladi.

— Yuqori saviyadagi mehmonxonalar, sport majmualari, hashamatli Oliy Majlis binosi, bir-biridan so'lim bog'lar, sayilgo'lar, bank binolari, ravon yo'llar, baland, zamonaviy ko'priklar, go'zal madaniyat saroylari shahar ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda.

— Toshkentdan butun dunyo mamlakatlariga havo yo'llari ochilgan. Bugungi kunda «O'zbekiston havo yo'llari» faoliyatidan barcha mamnun. Shaharda juda chiroyli qilib qurilgan, ikkita temir yo'l vokzali bor. Toshkent metrosi shahar aholisining uzog'ini yaqin qilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, bugungi Toshkent — chiroyli, madaniy, obod shahardir.

(O'quvchilar she'r aytadilar):

— Ona sharq go'zali, malikasi —

sen,
Osiyo bo'ynida bebaho gavhar,
Hayotim kaftingda kelding
avaylab,
Baxtim beshigiga aylangan shahar!
Istiqlol onasi, muqaddas Toshkent!
Qalbimda uyg'ongan muhabbat
Toshkent!

— So'nggi taomini mehmonga
tutgan,
Ona, deb kelganni olgan bag'riga.
Ozor bukolmagan, donishmand
tug'ib,
Dunyoni cho'mdirgan hikmat
bag'riga.
Non bilan gul hidi omuxtam
Toshkent!

Faqat ezgulikka oshuftam

Toshkent!

— Asrlar qariydi, sen esa mangu,
Yasharib borasan to'lib chiroyga.
Quyoshni mehringga etaman
qiyos.

Husningni samoda to'lishgan
oyga.

Vatan koshonasi munavvar
Toshkent,
Tarix sarhadida muzaffar
Toshkent!

Musiqada sadolari ostida yana sahnaga boshlovchilar chiqishadi va yakunlovchi so'z aytadilar.

— Aziz ustozlar, muhtaram mehmonlar hamda o'quvchilar. Bugungi tadbir munosabati bilan ona shahrimiz — Toshkentning tarixi, buguni va ertasi haqida qisqa bo'lsa-da tanishdiniz.

Yurtimizga bayramlar yarashadi. Oldimizda azim shahrimizning katta tantanalarini nishonlashdek sharafli lahzalar turibdi. Ana shu quvonchli damlarda ham siz, azizlar bilan uchrashish muyassar bo'lishini dildan niyat qilgan holda bugungi tadbirimizga yakun yasaymiz.

Xayr, omon bo'ling!

Bayramlarda ko'rishguncha!

Kecha Abdulhay Karimov ijrosidagi Toshkent haqidagi qo'shiq bilan yakunlanadi.

**M.ZIYOVIDDINOVA,
V.AXTYAMOVA,**

Toshkent shahridagi 300-maktab.

BILIMDONLAR BELLASHUVI

(2-sinflar uchun)



Maqsad: O'quvchilarni matematika fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularni erkin, mustaqil ishlashga o'rgatish, aqliy faoliyatini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va o'stirish.

Tadbirning sharti:

Sinfdagi o'quvchilarning eng iqtidorlilaridan 12 nafari tanlab olinadi va guruhlariga bo'linadi. Bellashuv jarayonida har bir guruhga 4 tadan shart qo'yiladi. Ularga matematika fanidan misol va masalalar, topishmoqlar, boshqotirmalar yechish topshirig'i beriladi.

Har bir guruhda 4 tadan o'quvchi bo'lishi kerak. Eng avval sardorlar tayinlanadi va guruhlariga nom qo'yiladi.

Tadbir jihozi: Sinf xonasi chiroyli bezatiladi. «Bilimdonlar bellashuviga xush kelibsiz!», «Zukkolarga oq yo'li!», «Quvnoqlarga quvonch yor bo'lsin!» shiorlari osiladi. Har bir guruhni baholab borish uchun ballar yozilgan kartochkalar, rag'bat uchun bayroqchalar, g'olib va faol

ishtirokchilarga berish uchun turli ertak kitoblar, albomlar hozirlanadi. Guruh a'zolari o'z joylarini egallaydilar.

Tadbir O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi bilan boshlanadi.

O'qituvchi: – Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, aziz davramiz ishtirokchilari! «Bilimdonlar bellashuvi»ga xush kelibsiz! Bugungi bellashuvda siz o'quvchilarimizning birinchi yarim yillikda olgan bilimlarini qay darajada ekanligini, ularning nechog'li topqirliklarini guvohi bo'lasiz. Endi ishtirokchilarni davraga taklif etsak.

O'qituvchi guruh va uning sardorlarini birma-bir tanishtiradi.

1-guruh – «Bilimdonlar», sardori – Sardorbek.

2-guruh – «Zukkolalar», sardori – Muxlisaxon.

3-guruh – «Quvnoqlar», sardori – Farruxjon.

Tanishuv tugagach, qizlar ijrosida milliy qo'shiq raqsi bilan ijro etiladi. O'qituvchi bellashuv shartlari bilan tanishtiradi.

1-shartga ko'ra guruh a'zolari matematika faniga oid she'riy

masalaga javob berishlari kerak bo'ladi.

To'g'ri javob 5 ball bilan baholanadi.

2-shart: O'tilgan mavzularga doir 4 tadan misol yechish.

3-shart: Masalalar yechish.

4-shart: Savollarga og'zaki javob berish.

5-shart: Boshqotirmani yechish va **so'nggi 6-shartda esa sardorlar** o'zaro bellashadilar. Unda «Kim marraga tez yetadi?» o'yini o'ynaladi. Qaysi guruh ko'p ball to'plasa, shu guruh g'olib bo'lishi va bayroqcha bilan taqdirlanishi guruh sardori, «Oltin toj» sohibiga aylanishi ham aytib o'tiladi. Shartlar tanishtirilgach, bolalar milliy raqslarimizdan birini ijro etadilar.

1-shart: She'riy masala

1-guruhga

Ko'm-ko'k archa ostida jajji
belanchak,
Belanchakda hayvonlar uchar
xushchaqchaq.

9 malla bo'richa, 7 tulkicha,
8 ayiq bolasi va 2 juft quyoncha.
Hisoblang, bolajonlar, hammasi qancha?

2-guruhga

O'ynar edi 12 ta qizaloq,
Keng chamanzorda.
Ularga qo'shildi 14 dugona,
Ayting, ja'mi qizlar sonin,
Ular bo'ldi nechta?

3-guruhga

Hovlimizda bor shaftoli daraxti,
Mevalari juda totli.
Hil-hil pishgan mevalarni
Sanab ko'rsam 45 dona.
Farrux yebdi 5 ta kecha,
Qani toping, bari nechta?
Musiqali tanaffus o'tkaziladi.

1-shart bo'yicha hay'at a'zolarining qo'ygan ballari e'lon qilinadi.

2-shart:

Har bir guruh uchun 4 tadan

misol doskaga yozib qo'yiladi. O'quvchi misollarni yechishlari kerak.

1. «Bilimdonlar» guruhiga

$$48-37 = \quad 100-13=$$

$$(35+18)-12= \quad 46+34=$$

2. «Zukkolar» guruhiga

$$72-28= \quad 100-26=$$

$$80-(50-14)= \quad 72+18=$$

3. «Quvnoqlar» guruhiga

$$48-27= \quad 100-18=$$

$$100-(35+23)= \quad 26+44=$$

Guruhlarning ishlari hay'at a'zolari tomonidan baholanadi va e'lon qilinadi.

2-shart bajarilguncha o'quvchilar ilm, kitob haqida she'rlardan namunalar aytishadi.

3-shart. Masalalar yechish.

1. «Bilimdonlar» guruhiga

Birinci likobchada 15 ta, ikkinchi likobchada undan 8 ta kam nok bor. Ikkala likobchadagi noklar nechta?

2. «Zukkolar» guruhiga

Birinci qopda 18 kg, ikkinchisida esa undan 7 kg ortiq sabzi bor. Ikkala qopda necha kilogramm sabzi bor?

3. «Quvnoqlar» guruhiga

«Tiko» avtomobilida 29 litr, «Neksiya» avtomobilida undan 39 litr ortiq benzin bor. Ikkala mashinada necha litr benzin bor?

3-shart qanday bajarilgani hay'at a'zolari tomonidan baholanadi va e'lon qilinadi.

Qizlar ijrosida raqs ijro etiladi.

4-shart. Savollarga og'zaki javob berish.

Har bir guruhga 4 tadan savol beriladi.

1. «Bilimdonlar» guruhiga

1. 60 soni 20 sonidan nechta ortiq?

2. 20 sm = ... dm ga teng?

3. 1-kesmaning uzunligi 7 sm, ikkinchi kesma undan 11 sm uzun. Ikkinchi kesmaning uzunligini toping.

4. 100 sonidan oldin qaysi son keladi?

2. «Zukkolar» guruhiga

1. 80 soni 154 sonidan nechta ortiq?

2. 40 sm necha dm ga teng?

3. 1-kesma 9 sm, ikkinchi kesmaning uzunligi undan 8 sm qisqa. Ikkinchi kesmaning uzunligini ayting?

4. 99 sonidan keyin qaysi son keladi?

3. «Quvnoqlar» guruhiga

1. 15 soni 70 sonidan nechta kam?

2. 70 sm necha dm ga teng?

3. Uchta sonning yig'indisi 80 ga teng. Birinchi va ikkinchi qo'shiluvchi 20 ga teng bo'lsa, uchinchi sonni toping?

4. 89 sonidan oldin qaysi son keladi?


Vatan haqida qo'shiq kuylanadi.

Hay'at a'zolari mazkur shart bo'yicha ham ballarni e'lon qiladilar.


5-shart. Boshqotirmaning yeching.

Har bir guruhga 1 tadan boshqotirma beriladi.


«Bilimdonlar» guruhiga



«Zukkolar» guruhiga




«Quvnoqlar» guruhiga



Boshqotirma javoblari hay'at a'zolari tomonidan tekshiriladi va ballari e'lon qilinadi.

Oxirgi shart. Sardorlar bellashuvi.

Bellashuv sharti bilan tanishtiriladi. Ular berilgan shakllardan foydalanib, uycha yasashlari kerak.



Qaysi guruhning sardori birinchi bo'lib uychani yasab bo'lsa, u g'olib hisoblanadi.

Oxirgi shart ham hay'at a'zolari tomonidan baholanadi va natijalar e'lon qilinadi. Barcha shartlar bo'yicha ham guruhlarining to'plagan umumiy ballari jamlanib, e'lon qilinadi. Eng ko'p ball to'plagan guruh aniqlanib, bayroqchalar bilan taqdirlanadi. G'olib guruh sardori esa «Oltin toj» sohibiga aylanadi va qarsaklar bilan olqishlanadi.

Guruhlardagi eng zukko, bilimdon o'quvchilar turli erтак kitobchalar, albomlar bilan taqdirlanadi. Bellashuv yakunida o'qituvchi o'quvchilar va hay'at a'zolariga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

O'qituvchi: – Aziz o'quvchilar, hurmatli ustozlar, qadrlı mehmonlar. Mana, bugun biz siz bilan 2- «A» sinf o'g'il-qizlarining topqirlik bahsida ishtirok etdik. Ularning nechog'li bilimdonliklarini guvohi bo'ldik va quvondik.

(O'quvchilarga qarab) - Bilimdon bolajonlar, kelgusidagi o'qish va ishlaringizga omad sizlarga doimo yor bo'lsin, hamisha a'lochilar safida qoling!

Tadbir yakunida barcha bolalar «O'zbekiston» qo'shig'ini ijro etishadi.

Dilrabo XIDIROVA,
Navoiy viloyati,
Navbahor tumanidagi
1-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

BETAKROR OVOZI BOR...



Bir o'qituvchi dugonam hikoya qilgan edi: «Bir kuni «Tabiatshunoslik» darsida «Olamga sayohat» ko'rsatuvidan ayrim lavhalarini monitor orqali bolalarga tomosha qildirdim. Bir payt bolalar bir-birlariga pichir-pichir qila boshladilar. Monitorni o'chirib, ulardan ko'rsatilgan ekologik mavzumizga mos kadrlarni so'rasam, o'quvchilarimdan biri ko'rganlarining hammasini birma-bir xuddi diskdagidek (aktyorga o'xshab) gapirib berdi. Oxirida bu manzarani bizning xotiramizga «mixlab» qo'ygan aktyor har yili «Prezident archa»sida Qorbobo bo'lib chiqadigan **Afzal Rafiqov** bo'ladi, deb so'zini tugatdi-da. Qayerdan bilding uning Qorbobo bo'lib chiqishini desam, «Voy, qiyinmi shuyam, ovozidan bildim, ovozidan. Qorbobo, Qorbobo, ovozlari zo'r bobo-ku bu aktyor», deydi. Haqiqatan, o'sha aktyorning ovoziga men ham asirman».

Men uning to'lqinlanib aytgan so'zlariga tasdiq ishorasini berib bordim. Va xayrlashgan chog'im dadam rahmatining so'zlari yodimga tushdi. 1995 yili ro'za paytida televizor ekrani orqali 30 kun namoyish etilgan «Muhammadun Rasululloh» ko'p qismli videotasmani ko'rib, «Dedilar...» deb so'z boshlaydigan yigitning ovozi juda shirali ekanmi» deya, qayta-qayta gapirganlarini esladim. Odatda bunday nisbat xonandalar ijodiga beriladigan baho edi. Dadamning «baholari» esa yuqorida tilga olgan «qahramonimiz» **Afzal RAFIQOV**ga berilgan edi.

Shularni o'ylab borar ekanman, yosh bolalarning ham ko'pgina taniqli aktyorlar ovozidan uning ovozini darrov farqlay olishlariga, bu ovozning tarixni tilga kirgizgudek qudratga ega ekaniga ishonch bilan qoyil qoldim. Va o'zimcha uning teatr sahnasida o'ynagan rollari, dublyajdagi ovozlari xotiramda tiklab, sifatlar bera boshladim.

Yodimda, o'tgan asming 70-yillari oxirlarida teatr muxlislari orasida shov-shuv bo'lib ketgan spektakl «Ro'yxatlarda yo'q» deb nomlanardi. Sobiq Hamza nomidagi Akademik drama teatri sahnasida qo'yilgan, rus adibi Boris Vasilyev qalamiga mansub bu asar butunlay yangi uslubda, aniqrog'i — yangilik uslubida qo'yilgan edi. Barcha tomoshabinlar sahnadan aylana shaklida joy olganlar. O'rtada aktyorlar. Qoyilmaqom qilib rollarini ijro etganlar. Tomoshabinlar zaliga esa oq mato tortilib, uning ustiga snaryad qoldiqlari, miltiqlar, patronlar tashlab qo'yilgan. Chunki bunday holat Brest qal'asining so'nggi himoyasi haqidagi manzarani aks ettirishi kerak edi-da. Spektaklning asosiy qahramoni — Plujnikov rolini maromiga yetkazib o'ynagan artist bizning «bugungi sahifamiz mehmoni» **Afzal RAFIQOV** edi.

Hech qancha vaqt o'tmay «Iste'dodli aktyor paydo bo'libdi teatrd» degan gaplar og'izdan-og'izga o'ta boshladi. Keyin bilsak, bu «iste'dodli aktyor» boshqird dramaturgi Ozod Abdullinning «13-rajs» spektaklida 13-rajs — Zokirov rolini qiyomiga yetkazgan artist **Afzal RAFIQOV** ekan. Shunday qilib, uning repertuari kun sayin, oy sayin yangi-yangi qahramonlar bilan boyiy boshladi: adabiyotshunos Shuhrat Rizayevning «Iskandar» asari asosida sahnalashtirilgan spektaklda Navoiy, «Shekspiring «Otello»sida Yago, «Qirol Lir»da Lir, «Kelinlar qo'zg'oloni»da Hakimjon va hokazo, va hokazo rollar uning iqtidori va mehnatlarini yuzaga chiqardi.

Ko'plab badiiy filmlarda, serial filmlarda, radio yoki telepostanovkalarda, eh-he, hech mubolag'asiz — mingdan ortiq «qahramonlar»ga ovoz bergan O'zbekiston xalq artisti, poytaxt Drama teatrining yetuk aktyori **Afzal RAFIQOV** ijodiga chizgilar berishda davom etdim.

Darhaqiqat, uning ovozi tarix silsilalaridan hikoya qiluvchi, tog'lar haybatini yodga soluvchi afsonaviy ovozdur. Xonandaning xonishi, raqqosaning xiromini eslatuvchi sehrli ovoz. Ba'zida dillarga taskin beruvchi orombaxsh ovoz. Xullas, bu ovozning ta'rifi cheksiz. Chunki bu ovoz ijrosidagi har bir manzara «jonlanib» ketadi go'yo. Ayrim hollarda baxshilarning qo'buz bilan aytayotgan dostonlarini eslatadi uning ovozi. Insonning ma'naviy olamini boyitadi bu ovoz.

Bugungi muxtasargina suhbatimiz ana shu betakror ovoz sohibi **Afzal RAFIQOV** bilan.

— **Afzalxon aka, «Boshlang'ich ta'lim» jurnalimizning muxlislari asosan maktablarda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-muallimlardir. Uar orasida sizning muxlislaringiz ham talaygina. Shu bois ularga o'zingizni yaqinroq tanishtirsangiz.**

— Bajonidil. Men 1948 yil 21

avgustda Toshkent shahrida ziyoli oilada tug'ilganman. Boshlang'ich ta'limning ilk sinflarini Bekobod shahridagi rus maktabida o'qiganman. Birinchi o'qituvchim hurmatli va oqila ayol Mariya Ivanovna bo'lganlar. 1957 yili 3-sinf dan boshlab o'qishimni poytaxtdagi 34-rus maktabida davom ettirganman. Hamma fanlardan deyarli «a'lo» baholarga

o'qiganman, faqatgina rus tilidan «4» baho chiqqan attestatimga. U ham bo'lsa, o'sha paytlarda rus tili mavqeyining yuqori bo'lganligi, mening o'zbekligim, biroz aksent bilan gapirishim orqasidan shunday bo'lgan. Bilim nuqtai nazaridan esa «5»ga bilardim.

Yoshligimdan olim bo'lish niyatida bo'lganman. ToshDUning «Fizmat»iga

o'qishga kirmoqchidim. Dadam: «Kasb egallaganing durust», dedilar. Shundan so'ng aviatsiya texnikumiga o'qishga kirdim. Uni tugatib, «Samolyotsozlik bo'yicha texnik-mexanik» deb yozilgan diplomga ega bo'ldim va 1967 yili Aviatsiya zavodida ish boshladim.

— *Lekin siz samolyotsoz emas, elga tanilgan mashhur aktyorsiz, sizdagi Xudo bergan iqtidor baribir o'z kuchini ko'rsatibdi, ustunlik qilibdi-da.*

— Yo'q, men iqtidorni emas, mehnatni birinchi o'ringa qo'ygan bo'lardim. Inson faqat va faqat mehnati orqaligina qadr topadi. O'zi bunday rasm solib ko'ring-a: inson bu dunyoga mehnat qilish uchun keladi, shunday emasmi? Oddiy chaqaloqning «faoliyati»ga e'tibor bering. U ham mehnat qiladi. Chunki nafs ham — mehnat. Yaratganning o'zi aytib qo'yibdi: «Sendan harakat — mendan barakat» deb.

Xullas, ishlab yurgan paytlarim «O'zbekiston madaniyati» (hozirgi «O'zbekiston adabiyoti va san'ati») gazetasida: «Teatr va rassomchilik instituti teatr va kinoaktyorlikka o'qishga tanlov e'lon qiladi» degan mazmundagi e'longa ko'zim tushgan. Yuragim «jiz» etgan. «O'zbekfilm» kinostudiyasi bizdan uncha uzoq emasdi. Dadam bilan boshlashib o'sha yerga borganimiz. Ommaviy sahnalarda ishtirok etish 3 yillik kurslari tashkil qilingan ekan. Darrov studiyaga kinomexaniklikka ishga kirganman. O'qituvchilar bilan yaqindan tanishib olish maqsadida. Saboq chog'ida Nazira Aliyeva degan juda bir olijanob ayol ustoz menga sahna nutqidan saboq berib, kirish imtihonlariga tayyorlaganlar. So'ng 1 yildan so'ng 1969 yili 68-yilgi armonni dog'da qoldirishni maqsad qilib, yana hujjatlarini to'plab, imtihon topshirishga bordim.

Imtihonlardan «5» va «4» baho olib, mandat komissiyasidan kunduzgi bo'limga o'tolmay, sirtqi bo'limga kirganman. O'sha davrdagi Hamza nomli Akademik drama teatrida, ayni paytda Milliy teatrdan sahna ishchisi bo'lib ishlab yurganman. Mana shu tariqa qadrdon dargohimizning muqaddas sahnasiga kirib kelganman.

— *Bir necha yillardan beri «Prezident archasi»ning «Qorbobosi»siz. Bu archa bayramining oddiy*

archa bayrami tantanalaridan mazmun-mohiyati jihatidan farqi nimada? Qolaversa, «Qorbobo» sizning zimmangizga qanday mas'uliyat yuklaydi?

— «Prezident archasi» tadbiri qolgan barcha qishki ta'til ayyomlari orasida yuqori saviyada tashkillashtirilgani bilan ajralib turadi. Unga tayyorgarlik ko'rish va nihoyatda sermazmun o'tkazish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi, «Sen yolg'iz emassan» Respublika bolalar jamoatchilik jamg'armasining sa'y-harakatlari ayniqsa, tahsinga loyiq.

Tadbirda doimgidek «Mehribonlik uylari» tarbiyalanuvchilari, 3-5 yoshgacha bo'lgan ota-onasiz chin yetim bolalar, Oilaviy bolalar uyi, Muruvvat uylaridan o'g'il-qizlar, «SOS» bolalar mahallasidagi tarbiyalanuvchilar, Vatan sarhadlarini himoya qilib, yurtimiz ozodligi va tinchligi yo'lida qurbon bo'lgan Milliy Xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar xodimlarining farzandlari, mahallalardagi kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar farzandlari taklif etilib, ularga Prezidentimiz sovg'alari — turli tuman o'quv qurollari, har turli shirinliklar belgilangan tartibda taqdim etiladi. Bu yilgi tadbir tantanalari an'anaviy ravishda poytaxtimizning muhtasham «Turkiston» san'at saroyida o'tkazildi. Ayyomga ko'plab mehmonlar tashrif buyurishdi. El sevgan san'atkorlar o'z chiqishlari bilan, turli xil ertak qahramonlari biri-biridan qiziqarli ishtiroklari, sahna ko'rinishlari bilan bolalar quvonchiga quvonch qo'shdilar.

Zimmamdagi mas'uliyatga kelsak, men har gal shuncha yillik tajribamni, malakamni, mahoratimni ishga solib, archa bayrami quvonchlarini bolalar yuragiga singdirishga harakat qilaman. O'zimni aktyor emas, Afzal Rafiqov emas, o'sha tobda haqiqiy Qorbobodek his etaman.

Uyga kelib, nabiralarimdan so'rayman: «Qalay bo'ldi?»

— Zo'r, buva, zo'r! — deyishadi. Sizlarga yoqdimi, demak, xursandman, deymen quvonchimni men ham yashirolmay. Qani, aytinch, chindan ham nabiralarim qatori bolajonlarimning xursandligini his qilishdan ortiq baxt bormi «Qorbobo» uchun.

— *Hurmatli «Qorbobo!» Mushtariylarimiz oilangiz haqida*

ham bilishni xohlaydilar.

— Ayolim Shohidaxon bilan salkam 40 yillik birgalikdagi turmushimizdan orttirgan «mevalarimiz» — uch o'g'il, olti nevaraga egamiz. Uchta kelinimiz bor. Ikki o'g'lim — Ahrorjon va Sardorjonlar — tadbirkorlar. Kichik o'g'lim Sarvar Rafiqov «Oriyat Dono» va «Yoshlik» radiostansiyasida rejissyor bo'lib ishlaydi.

— *Sizga so'nggi an'anaviy savol: jurnalxonlarimizga ta'lim-tarbiya borasidagi maslahatlaringiz va ularga tilaklaringiz?*

— Hozirgi yoshlar bundan 15-20 yil avvalgi yoshlarga mutlaqo o'xshashmaydi. Ularni hayratga solish, o'ziga qarata bilish oson ish emas. Shuning uchun, o'ylaymanki, har bir o'qituvchi o'z ustida betinim ishlagina, to'xtovsiz harakatda — yangiliklar izlashdan, axborotlar yig'ishdan charchamaydigan bo'lsagina va yoshlar bilan ishlashda sabr-toqatga ega bo'lsagina yaxshi natijalarni qo'lga kiritadi. Hozirgi yoshlar orasidagi eng katta kamchilik — kitob o'qishlikka e'tiborning sustligi. Ana shu kamchilikni bartaraf etishda yuqoridagi sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchining ham hissasi bo'lishi lozim, deb hisoblayman. Axir kitob mutolaasi — ma'naviyat, kamolotga erishish degani-ku.

Ana shunday xayrli ishlarda men ularga bag'rikenglikni tilayman, sabr-toqat tilayman. Oilalari, maktabdagi qorako'zlari — ulg'ayib kelayotgan yosh avlod baxtiga ular doim omon bo'lishsin, sog'-salomat yurishsin.

**Suhbatdosh:
Mahfuza ZAYNIDDINOVA.**

DILIMIZDAGI ULUG' MAQSAD

Maktabimiz Qo'shrabot tumanining eng chekka hududlaridagi qishloqlardan biri bo'lmish Kegovlida, mashhur baxshimiz Ergash Jumanbulbul aytganlaridek tog'lar orasida joylashgan bo'lib, bu maskanda o'z kasbining chin fidoyilari, elu yurt hurmatiga sazovor bo'lgan ustozlar, ularning shijoat bilan butun qalb qo'rini yosh avlodni tarbiyalashdek savobli ishlarga baxshida etayotgan munosib shogirdlari mehnat qilishadi. Bu yerda ta'lim va tarbiya birligiga alohida ahamiyat qaratiladi. Ilm dargohida nafaqat yuqori sinf o'quvchilari, balki boshlang'ich sinfda o'qiyotgan jajji bolakaylarga ham ana shu ezgu maqsad orqali bilim berilgani bois ta'lim maskanimizda erishilayotgan samaralar, yutuqlar ko'lami nihoyatda keng.

Ma'lumki, bizda milliy qadriyatlarimiz, mehnatsevarlik, ota-onaga, o'z yaqinlariga, mahalla-ko'y, kattayu kichiklarga hurmat hissi dastlab oila muhitida tarkib toptiriladi. Shundan bo'lsa kerak, oila tarbiyasini mukammal egallagan farzandlarimiz maktabda o'qish, ilm sirlarini egallashga qunt bilan kirishadilar. Mana shu jihatlarni yaxshi anglagan holda jamoamiz ta'lim jarayonida tarbiya, kasb- hunarning ilk qirralarini o'rgatish, mehnatga muhabbatni uyg'un olib borish kabilarga asosiy e'tiborni qaratib kelmoqda. Joriy o'quv yilimiz «Ta'lim muassasalarida ijodiy muhitni rivojlantirish o'quv yili» deya atalishi ham bolalarimizdagi iste'dod qirralarini to'la namoyon etishda, ularning qiziqish va salohiyatini bundanda takomillashtirishda keng ko'laml

imkoniyatni berdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Davr talablari asosida ta'lim-tarbiya berish bugunning asosiy talabi ekanini barchamiz yaxshi anglaymiz. Yana shuni yaxshi anglaymizki, boshlang'ich sinflardan boshlab dars jarayoniga ijodiy muhit olib kirilsa, buning samarasi ayniqsa, katta bo'ladi. Undan tashqari, bola bilan individual ishlash ham biz kutgandan ko'proq natijalar berishiga o'z faoliyatimiz davomida amin bo'lganmiz. Asosiysi, ulardagi qiziqish va intilishlarni erta anglab, to'g'ri yo'nalish bera olsak, bu bizning o'sha bolaning kelajagiga ilk pillapoyalarni qo'yganimiz bo'ladi. Negaki, ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan dars jarayonida ko'rgazmalilik va noan'anaviylik alohida ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlarda «Maqolni davom ettir», «Ertakni boshlashga yordam bering», «O'zimiz she'r yozamiz», «Ertakni siz qanday tugatgan bo'lardingiz?», «Men tanlagan kasb» kabi usullardan foydalanish bola zehni oshishiga, ular nutqini, so'z boyligini kengayishiga, fikrini mustaqil, erkin bayon etishiga asos bo'ladi. Sinf dan tashqari «Yosh musavvir», «Mohir qo'llar», «Kichkina chevar», «Kulolchilik» kabi to'garaklar va turli tadbirlar, «Mening qishlog'im», «Bobolarim o'g'itlari», «Obod mahallam» kabi insholar tanlovi ham o'quvchining ochilmagan qirralarini, ijodiy qobiliyatlarini to'la namoyon etishda muhim rol o'ynaydi.

Yangi — 2009 yilimiz Prezidentimiz taklifi bilan «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deya ataldi. Yurtboshimizning «Ona-Vatan degan muqaddas

tushuncha odamzod uchun go'yoki qishloq timsolidan boshlanadi» degan so'zlari saxovatli qishloq ahllarining qalbini beqiyos g'urur va shodlikka to'ldirdi. Bu e'tibor ayniqsa, biz, o'qituvchilar oldiga ham ulkan mas'uliyat yuklaydi. Chunki ta'lim jarayonidagi islohotlar qaynoq jabhaga kirgan bir davrda ulug' maqsadlarga esh bo'lgan yangi yilimiz qo'limizda ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizning har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda yanada fidokorona mehnat qilishga chorlaydi. Ana shunday jo'shqin faoliyat olib borish bosh maqsadimizga aylanar ekan, biz ham «...qishloq ahlining manfaatlarini to'liq ta'minlashga qaratilgan huquqiy bazani mustahkamlashga» o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz.

«Kelajak bugundan boshlanadi», deyдилar. Bu haq gap. Kegovlida o'z mehnatlari bilan hurmat, izzat topgan, saxovatpesha, ona zaminini gulga burkagan qo'li gul, bag'rikeng fidoyilar ko'plab topiladi. Ajabmaski, yillar o'tib bizning qo'limizda ta'lim olgan, donishmand bobolari o'g'itlari bilan ulg'aygan o'quvchilarimiz ham ajdodlari kabi ona yurtiga sodiq farzandlar bo'lib kamol topib, O'zbekiston shuhratini, sha'nini yuksak-yuksaklarga ko'tarishsa. Men bunga, albatta, ishonaman.

O'roloy MARDIYEVA,
Samarqand viloyati,
Qo'shrabot tumanidagi
5-maktabning boshlang'ich
sinf o'qituvchisi.

ONA TABIATNI ASRAYLIK

Biz ardoqlab kelayotgan milliy qadriyatlarimizda ona yurtga, tabiatga muhabbat tuyg'usiga alohida e'tibor qaratiladi. Hech qachon o'z qadr-qimmatini yo'qotmaydigan ibratli pandu nasihatlarida aha o'sha tuyg'ular bolaligimizdan murg'ak qalblarimizga bobolarimiz, momolarimiz tomonidan singdirilib boriladi. «Birni kessang, o'nni ek», «Suv — hayot manbai», «Toza havo — tangga davo», «Suvga qarab tupurma, suvga qarab supurma» kabi naqlarda insonlarni tabiatni asrashga, mehnatga chorlovlarni ko'plab uchratamiz.

Bundan deyarli uch ming yil avval yaratilgan nodir qo'lyozmamiz «Avesto»da ham tabiatni muhofaza qilishga keng o'rin berilgan. Unda yer, suv, havo, tuproqni ifloslantirishning kechirilmas gunohu azim ekanligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bizgacha qariyb 30 asr ilgari ham ota-bobolarimiz tabiatga ozor yetkazmaslikni, uni omon saqlashni o'zlarining muqaddas burchi deb bilganlar. Afsuski, bugunga kelib ilm-fan taraqqiyoti, barcha jabhalardagi yuksalishlar, texnikaning jadal suratlarida o'sishi dahshatli bo'hronni yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Unutmaylik, tabiatga ongli munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash, suv, havo va tuproqni, yashil olam boyliklarini, hayvonot olamini muhofaza qilish, Ona sayyoramizning har qanday talofatlardan himoyalash bugungi kunda barchamizning oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir. E'tibor beradigan bo'lsak, tabiat muvozanatining buzilishi jiddiy talofatlarga - ob-havoning keskin o'zgarishi, ko'plab vayrona-

garchiliklar olib kelgan kuchli to'fonlar, suv toshqinlari, fasllarga xos bo'lmagan jazirama issiq, yog'ingarchiliklarga sabab bo'lmoqda. Bularning bari ekologik inqirozlar tufaylidir. Endilikda dunyo xalqlarini ogohlikka chorlayotgan ekologik muammolar bizning ham hushyor bo'lishga da'vat etmoqda.

Orol fojeasi, atrof-muhitga o'zining zararli ta'sirini o'tkazayotgan sanoat shaharlaridagi ekologik tanglik, tobora ko'plab maydonlarni egallab borayotgan chiqindilarning insonlar sog'ligiga zararli ta'siri, toza ichimlik suvining ifloslanishi, odamlarning tabiatga nisbatan ko'r-ko'rona munosabati tufayli o'simliklar dunyosining talofati, havoning bulg'anishi va alaloqibat, ko'payib borayotgan turli xastaliklar - bularning barchasi bugun bizlarni qayta-qayta ogohlikka chorlamoqda.

